

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 57 (1656), 2026-yil 25-mart, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



YANGI TOSHKENT MAMLAKATIMIZNING YANGI IMKONIYATLAR VA ILG‘OR G‘OYALAR MARKAZIGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-mart kuni Yangi Toshkentda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda barpo etilishi rejalashtirilayotgan yangi obyektlar loyihalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab bu yerda barpo etilayotgan yirik sport inshooti — zamonaviy futbol stadionining qurilish jarayonini ko‘zdan kechirdi.

Ushbu zamonaviy sport majmuasiga o‘tgan yilning 11-noyabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan tamal toshi qo‘yilgan edi.

Ayni paytda o‘yning qurilishi jadal davom etmoqda. Jumladan, yerni tekislash ishlari to‘liq yakunlangan. Poydevor quyish ishlari to‘qson besh foizga bajarilgan. Qurilish joyiga metall-konstruksiya materiallari bosqichma-bosqich keltirilmoqda.

Qayd etish kerak, keyingi yillar mamlakatimiz futbol sohasida tub burilish davri bo‘ldi. Jumladan, mahalliy chempionatlar tizimi isloh qilinib, bolalar va o‘smirlar akademiyalari tashkil etildi, hududlarda 75 ta katta va 302 ta mini stadion faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma‘lumki, 2017-yilda yurtimizda FIFA va Osiyo futbol konfederatsiyasi talablariga javob beradigan maydonlarning soni atigi 3 ta bo‘lgan. Bugun ularning soni 10 tadan oshdi.

Shuningdek, 1,5 mingga maktabning futbol stadionlari ta‘mirlanib, 1 milliondan ziyod o‘quvchi va mahalla yoshlari qamrab olindi. Yoshlar o‘rtasida mahalla, tuman, viloyat va respublika turnirlarini an‘anaviy o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Bu sa‘y-harakatlar o‘z natijasini bera boshladi.

Futbol bo‘yicha olimpiya terma jamoamiz Parijdagi olimpiadada ilk bor ishtirok etdi. Tariximizda birinchi marotaba milliy terma jamoamiz joriy yilda bo‘ladigan jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.

O‘tgan yilning 2-oktabr kuni FIFA Kengashi yig‘ilishida futbol bo‘yicha 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida 2027-yildagi jahon chempionatini O‘zbekiston va Ozarbayonda o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Ushbu jahon chempionati doirasidagi o‘yinlar ikki mamlakatdagi 3 tadan stadionda o‘tkaziladi. Jahon chempionatlarining final va yarim final o‘yinlari sig‘imi 50 mingdan ko‘p bo‘lgan stadionda o‘tkazilishi FIFA talablaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz futbol uchun muhim loyiha — Yangi Toshkent stadioni shu maqsadda qurilmoqda. Qiymati 100 million dollarlik ushbu o‘yning qurilishi uchun nega aynan

Yangi Toshkent hududi tanlandi? Sababi Yangi Toshkent kelajakda mamlakatimizning yangi imkoniyatlar va ilg‘or g‘oyalar markaziga aylanadi.

Yangi Toshkent stadioni FIFAning barcha talablariga mos ravishda barpo etilmoqda. Majmua Osiyodagi eng yirik va zamonaviy infratuzilma ega futbol maydonlaridan biri bo‘ladi.

Mazkur inshoot nafaqat 2027-yilgi 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasidagi jahon chempionati uchun, balki butun o‘zbek futboli va yoshlar sportining kelgusi rivoji uchun xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbariga qurilish jarayoni haqida batafsil ma‘lumot berildi.

55 ming tomoshabinga mo‘ljallangan Yangi Toshkent stadioni 6 qavatli bo‘ladi, unda nafaqat sportchilar, balki tashrif buyuruvchilar va matbuot xodimlari uchun ham keng qulayliklar yaratiladi. Tomoshabinlar stadiona tez fursatda kirib-chiqishlari uchun o‘ndan ortiq eskalator o‘rnatiladi. Hududda yana qo‘shimcha 3 ta mashg‘ulot maydoni bo‘ladi. Stadion yaqinida metro bekati barpo etiladi. 5 ming 500 o‘rinli avtoturargoh quriladi.

Prezidentimiz bunday katta sig‘imli yopiq stadion mamlakatimizda ilk bor bunyod etilayotgani uchun har bir jihatga ahamiyat berish zarurligini ta‘kidladi. Stadion atrofini obodonlashtirish ishlarini hozirdan rejalashtirib, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligi qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent shahrida barpo etiladigan favvora majmuasi loyihasi bilan ham tanishdi.

Mamlakatimizda aholi uchun zamonaviy jamoat makonlari, ko‘ngilochar va madaniy hordiq maskanlarini tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu kabi loyihalar shaharlar qiyofasini boyitish, aholi uchun qulay dam olish muhitini yaratish, shuningdek, mahalliy va xorijiy mehmonlar oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Yangi Toshkentda qariyb 8 gektardan iborat maydonda musiqali favvora majmuasi barpo etish rejalashtirilgan.

Loyihaga ko‘ra, suv yuzasining umumiy maydoni 6,3 gektarni tashkil etadigan havzada 1,5 gektar maydonda suv, musiqa va yorug‘lik uyg‘unligidagi shoularni o‘tkazish imkonini beradigan favvora barpo etiladi. Majmua tarkibida suvni 232 metr balandlikkacha ota

oladigan super favvora, diametri 100 metrlilik suzuvchi platforma bo‘ladi.

Favvora radiusi 185 metr bo‘lgan, 360 darajali suv ekranini hosil qilish hamda uning yuzasida turli tasvirlarni proyeksiya qilishga qodir bo‘ladi.

Shuningdek, yuqori quvvatli lazer nurlari, dinamik suv kompozitsiyalari va turli vizual effektlardan foydalanish rejalashtirilgan. Nasos, elektr, lazerli proyeksiya va boshqa texnik tizimlar yer ostidagi ikki qavatli inshootda joylashtiriladi.

Suv havzasi atrofida yashil hududlar hamda xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Ushbu majmua Yangi Toshkentning eng diqqatga sazovor joylaridan biriga aylanishi, shaharning me‘moriy qiyofasini boyitishi va turli madaniy tadbirlar, bayram hamda festivallar uchun yana bir zamonaviy maskan bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihaning mazmun-mohiyati, texnik yechimlari va hududni kompleks obodonlashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. Bu yerga tashrif buyuruvchilar uchun zamonaviy savdo, ovqatlanish va servis xizmatlarini sifatli tashkil etish muhimligini ta‘kidladi. Shu bilan birga, ayni hududda joriy yilgi Mustaqillik bayrami munosabati bilan shu tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish zarurligi qayd etildi. Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyevga Yangi Toshkent shahri hududida amalga oshirilishi rejalashtirilgan “Buyuk ipak yo‘li” loyihasi taqdimot qilindi.

Ma‘lumki, Yangi Toshkent shahri barpo etish doirasida birinchi bosqichda 6 ming gektar hududda qurilish ishlarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Ushbu bosqich yakunida 600 ming aholi uchun zamonaviy infratuzilma yaratiladi. Loyiha to‘liq ro‘yobga chiqarilganda esa Yangi Toshkent 2 million nafar aholi yashaydigan zamonaviy megapolisga aylanadi.

Maydoni 32 gektar bo‘lgan “Buyuk ipak yo‘li” majmuasi Yangi Toshkentning muhim jamoat va madaniy makonlaridan biri bo‘lishi rejalashtirilgan. Bu yerda turar joylar, tijorat binolari, mehmonxonalar, madaniyat va ta‘lim markazlari, shuningdek, boshqa zamonaviy infratuzilma obyektlari quriladi.

Konsepsiyaga ko‘ra, majmua hududida Buyuk ipak yo‘li bilan bog‘liq turli

sivilizatsiyalarga bag‘ishlangan mavzuli mahallalar tashkil etiladi. Har bir hudud Buyuk ipak yo‘li bo‘yida joylashgan mamlakatlarini ifodalaydi.

Taqdimotda O‘zbekiston mahallasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bu yerda har bir bino, har bir ko‘cha va maydon orqali xalqimizning tarixi, madaniyati va qadriyatlarini aks ettirish zarurligi qayd etildi.

Mamlakatimizning boy tarixiy merosini yanada keng namoyon etish, ajdodlarimizning ilm-fan, madaniyat va me‘morlik sohalardagi yutuqlarini yosh avlodga yetkazish, shuningdek, xalqaro turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator muzeylarni renovatsiya qilish rejalari ham ko‘rib chiqildi.

Jumladan, Imom Moturidiy ziyoratgohida muzey tashkil etish, unda “Yangi O‘zbekistonda Imom Moturidiy merosiga e‘tibor”, “Imom Moturidiy hayoti” kabi mavzuli zallar va moturidiylik ta‘limotiga bag‘ishlangan bo‘limlar joylashtirish rejalashtirilgan. Shuningdek, “Bahouddin Naqshband” ilmiy-innovatsion muzeyi faoliyatini mazmunan boyitish, ayniqsa, “Yeti pir” zalida ulug‘ allomalar hayoti va merosini zamonaviy shaklda keng yoritish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Bundan tashqari, Temuriylar tarixi davlat muzeyini zamonaviy muzeysunoslik va dizayn yechimlari asosida renovatsiya qilish rejasini ham axborot berildi. Unda ekspozitsiya zallarini qayta shakllantirish va tashrif buyuruvchilarga yuqori darajadagi vizual va ma‘rifiy tajribani taklif etish ko‘zda tutilgan. Har bir zal alohida tarixiy davr va mavzuga bag‘ishlanadi.

Taqdimot qilingan loyihalarining umumiy maqsadi milliy tariximizni ilmiy asosda chuqur yoritish, zamonaviy madaniy infratuzilmani shakllantirish va mamlakatimizga keluvchi mehmonlar uchun jozibador turizm makonlarini yaratishdan iborat.

Loyihalar davlatimiz rahbari tomonidan ma‘qullandi, ularni amalga oshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
O‘ZA muxbirlari**

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-mart kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi. O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, tovar ayirboshlash hajmi 10 foizga o‘shib, 13 milliard dollarga yetdi, joriy yil boshidan esa yana 32 foizga ko‘paydi.

Sanoat, energetika, transport va iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida yirik kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish davom etmoqda.

O‘zbekistonda birinchi atom elektr stansiyasini qurish loyihasini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiyaning samarali faoliyatiga yuksak baho berildi.

Tomonlar kooperatsiyaning yangi shakl va loyihalarini ilgari surish uchun samarali maydonga aylangan “INNOPROM Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasining navbatdastigini joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazishga faol tayyorgarlik ko‘rayotgani ta‘kidlandi.

Xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shu jumladan, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Ukrainadagi vaziyat yuzasidan fikr almashildi.

Bo‘ljak tadbirlar rejasini ham muhokama qilindi.

O‘ZA

Xalqaro hamkorlik

O‘zbekiston – Tojikiston:

IQTISODIY ALOQALARDA TUB BURILISH

O‘zbeklar va tojiklar dini, tarixi, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlari o‘xshash, bir arigdan suv ichgan, hatto “bozori ham bir” xalqlardir. Bir-birimizni ana shunday yaqinlik, uyg‘un qadriyatlar bilan birga o‘zaro hurmat, yaxshi qo‘shnichilikning ko‘p asrlik an‘analari birlashtirib turadi. Qadimdan bir zaminda yonma-yon, ahil qo‘shni bo‘lib yashab kelayotgan birodar xalqlar o‘rtasida asrlar davomida shakllangan quda-andalik an‘analari hamon davom etib kelmoqda.

Davomi 4-betda



Yangi O‘zbekiston ruhi

VASHINGTONDAN TERMIZGACHA

Fevralning ikkinchi yarmida umummilliy va ellararo darajada yuz bergan voqealar tahlili tarixan davlatchilik an‘analimizga xos bir haqiqat o‘z kuchini yaqqol ko‘rsata boshlaganini tasdiqladi. U ham bo‘lsa, o‘zbek davlati — Turonda yuz beradigan har qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yuksalish ertami-kechmi, avvalo, yon-atrofni, so‘ng butun dunyoni qamrab olishi qoidasidir. Unga oid dalillar davlatimizning 3000 yillik bisotida yetarlicha topiladi. Biroq ulat orasida eng yorqini va ko‘lamli, albatta, el-yurtimizga Amir Temur bosh-qosh bo‘lgan pallaga to‘g‘ri keladi.

Dunyoni mo‘g‘ullarning 150 yillik iskanjasidan ozod etgan Sohibqiron 20 yil deganda Turonni birlashtirish, 35 yilda Samarqandni jahonning siyosiy, iqtisodiy va ilmiy-madaniy markaziga aylantirishga erishdi. O‘rtayer dengizdagi Xitoy devori, Moskvadan Dehligacha yastangan ulkan kenglikni qamrab olgan ulug‘ sultanatda keyingi yuz yilda kechgan va temuriylar oltin asri — Ikkinchi Uyg‘onish davri o‘laroq tan olinadigan milliy va umumjahon yuksalishi poydevorini ham Amir Temur qo‘ygan tarixiy haqiqat.

Shohrux Buyuk temuriylar saltanati birligini saqlash, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, jumladan, ilmiy-madaniy yuksalishni uddalagan ulug‘ shaxsdir. Amir Temurning nabirasi Abusaid esa bobosi merosini tiklashga qattiq uringan va shu yo‘lda qurbon bo‘lgan jakofakash hukmdordir. Shundan keyin 550 yil ichida biz Sohibqiron davrida erishilgan marralar va maqomimizni qo‘ldan boy berdik.

Tahlilni aynan tarixiy chekinishdan boshlaganimiz bejiz emas. Bundan maqsad o‘tmishdagi buyukligimizda ham emas. Muddaomiz bitta: o‘tmishdagi xatolarimizni takrorlamaslik, hozirgi turish-turmushimizda kechayotgan tarixiy o‘zgarishlar, yangilanishlar, qo‘lga kiritilayotgan marralar, yutuqlar va qilinajak ishlar ahamiyatini anglash, yetib kelganimiz — shunday

kunlarni qadrlash, o‘z kuchimizga ishonish, birgalikda o‘ylash va xulosalarga undashdir.

Bugun AQSH deganda, 42,5 million kvadrat kilometr maydonga ega, aholisi 1 milliarddan ortiq qit‘ani emas, balki shu yil yozda 250 yilligini nishonlaydigan mamlakat tushunilishi, mazkur holat ushbu davlatning siyosiy, harbiy, iqtisodiy va ilmiy-texnologik kuch-qudrati bilan bog‘liqligi ham bor gap. Biroq biz — o‘zbeklar uchun “yangi dunyo” ko‘p ham yangilik emas.

Yevropaliklar uni 15-yuziyillik so‘ngida kashf etgan bo‘lsa, okean ortida quruqlik borligini biz 1030-yildayoq bilganmiz. O‘zbekning eng ulug‘laridan sanalmish Abu Rayhon Beruniyning “Yerning odamlar yashaydigan qismini bunday tasavvur qil: shu qism Yerning shimoliy yarmida bo‘lib, bu esa yarmining yarmini tashkil etadi. Demak, Yerning to‘rtinchi qismida odamlar yashaydi. Shu qismni muhit (okean) deb ataladigan dengiz G‘arb va Sharq tomondan o‘rab turadi... Bu dengiz Yerning shu qismi bilan o‘zining narigi tomonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan quruqlik yoki odamlar yashaydigan qit‘a orasini G‘arb va Sharq tomondanlarid ajratib turadi” degan xulosasining ham ilmiy, ham amaliy mohiyatini tushungan tushunadi, tushunmagan esa yo‘q!

Davomi 3-betda



Prezident tashabbusi amalda

O‘ZBEKISTON – TURKIYA: OG‘IR DAMDA HAM, YAXSHI KUNLARDA HAM BIR-BIRIGA YELKADOSH



O‘zbekistonda bu yil Navro‘z bayrami har qachongidan ham o‘zgacha shukuh va ko‘tarinki kayfiyatda, tarixiy voqealarga boy o‘tayotir. Muborak Ramazon hayiti Navro‘z kuni arafasida nishonlanishi xalqimizning quvonchi, shodu xurramligini karrasiga ortirdi.

Davomi 2-betda



AYOLLAR VA BOLALAR HUQUQI: TANLOV QAT'IY, HIMOYA USTUVOR

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida inson qadri birlamchi tamoyilga aylangan bir paytda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va huquqlarini kafolatlash masalasi tobora dolzarb va strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida xotin-qizlarning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, farzandlarini himoya qilish qadimdan erkaklar uchun sha'n va g'urur masalasi bo'lib kelgan alohida ta'kidlandi. Ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha parlament, fuqarolik jamiyati institutlari bu jarayonlarda faol ishtirok etishga undalar ekan, "Hech qachon unutmaylik, oilaviy zo'rvonlik bu faqat oilaning ichki ishi emas, bu butun jamiyatga tegishli masala. Ayolni o'z muammosi bilan yolg'iz tashlab qo'yishga hech kimning haqqi yo'q!" degan qat'iy pozitsiya ilgari surilgan edi. Ana shu hayotiy va xalqchil qarashlar Prezidentimizning yaqinda qabul qilingan tegishli farmonida ham izchil davom ettirilib, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ta'ziy va zo'rvonlikka qarshi kurashish borasida aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlar, mas'uliyat va hamkorlik zanjiri belgilab berildi.

Ayol — oila ustuni, farzandlar tarbiyachisi, ma'naviyat posboni, avlodlar davomiyligini ta'minlovchi bebaho kapital. U qadr topgan va e'zozlangan jamiyatda tinchlik barqaror, ma'rifat ustuvor, taraqqiyot poydevori mustahkam bo'ladi.

So'nggi 8-10 yilda ayol-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida mamlakatimiz tarixida misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratildi. Ta'lim, bandlik, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, rahbarlik lavozimlarida ayollarning



Zulayho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o'rinbosari —
Oila va xotin-qizlar
qo'mitasi raisi

ulushi, huquqiy kafolatlar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Kechayu kunduz mehnat qilayotgan, o'z ustida ishlayotgan, oilasi va jamiyati uchun mas'uliyatni his qilayotgan xotin-qizlar bugun imkoniyatlardan tobora ko'p foydalanayotgani, salohiyatini ro'yog'ga chiqara olayotgani islohotlar samarasi va inson qadri siyosatining har bir xotin-qiz hayotida aks etayotganini anglatadi.

Bugun dunyo o'ta murakkab, tahlikali va qaltis. Yangi xatarlar, huquqbuzarliklar, shaxsiy hayot daxlsizligiga tajovuzlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'ziy, kiberzo'rvonlik, onlayn

firibgarlik, noqonuniy ta'qib kabi illatlar kun sayin, soat sayin ko'payayotgan bir davrda xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanayotir.

Shu ma'noda, Prezidentimizning 2026-yil 3-martdagi "Ayollar va bolalar huquqlarini himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan ta'ziy va zo'rvonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berayotgan tarixiy hujjatdir. Farmondagi har band va qo'yilgan aniq vazifalar tizimining yanada samarali ishlashini ta'minlaydi. Endi har bir natija, har bir ko'rsatkich, har bir holat bo'yicha tizimli yondashuv va mas'uliyat yanada ortadi. Qisqacha aytganda, ko'pdan buyon yechimini kutayotgan qator masalalar, muammolarga huquqiy yechimdir.

Boisi, farmon erta nikohning oldini olish, farzandlar tarbiyasida ota-onalarning mas'uliyatini oshirish, maishiy zo'rvonlik holatlarini keskin kamaytirish, zo'rvonlikning u yoki bu ko'rinishidan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish, umuman, sohaning eng og'riqli nuqtalarini bartaraf qilishga qaratilgan.

Farmonda eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida nikohlanuvchilarni oila va xotin-qizlar maskanlarida "maishiy zo'rvonlik baxtli oilaviy hayotga tayyorlash" dasturi bo'yicha maxsus kurslarga qamrab olish masalasi belgilandi. Hujjatda mazkur kurslarda bepul o'qitish bilan qamrovni bosqichma-bosqich oshirishning aniq ko'rsatkichlari ham belgilab qo'yilgan: 2026-yilda — 50 foiz, 2027-yilda — 60 foiz, 2030-yilda — 100 foiz. Bunda "baxtli oila — zo'rvonliksiz muhit" tamoyili ilgari suriladi.

E'tiborli jihati shundaki, farmonda faqat qamrovni oshirish emas, balki kurslarning

sifati va ta'sirchanligini tubdan yaxshilash ham alohida vazifa sifatida belgilangan. Bu esa mazkur o'quvlarining formal tarzda o'tkazilib qolmasligi, aksincha, haqiqiy natija berishi — oilaviy munosabat madaniyati, o'zaro hurmat, huquqiy savdonlik, mas'uliyat va kelishuvga asoslangan turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishi kerakligini anglatadi. Demak, ushbu maxsus kurslar zo'rvonliksiz oila muhitini barpo etishga qaratilgan profilaktikaning muhim bo'g'ini bo'ladi.

Shu bilan birga, hujjatda millatimiz oltin fondi bo'lgan yoshlarning katta hayot yo'lini uzoqni ko'zlagan holda tanlashi va mustahkam oila qurishi uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar ham joriy etilmoqda. Xususan, kelgusi yildan boshlab har ikki taraf kamida 21 yoshga to'lganda birinchi marta nikoh tuzgan yosh oilalarga davlat tomonidan qo'shimcha imtiyoz va qo'llab-quvvatlov taqdim etilishi belgilandi. Agar bunday oila ijtimoiy reyestriga kiritilsa, unga beriladigan moliyaviy ko'mak — subsidiya, ssuda va grantlar qonunchilikda belgilangan miqdordan 1,5 baravar oshirilgan holda ajratiladi. Qisqasi, mustahkam oila qurish, bu muqaddas qo'rg'inni asrab qolish, unda baxtli va farovon hayot kechirish asosiy mezon sifatida belgilanmoqda.

Farmon oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatni kuchaytirishga ham xizmat qiladi: nikoh shartnomasini tuzgan nikohlanuvchilar nikohni qayd etish uchun belgilangan davlat bojidan ozod etilishi ko'zda tutilgan. Bu esa oila qurishda shoshma-shosharlik, o'z bilarmonlik emas, og'ir-vazminlik bilan qaror qabul qilish va uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga rag'bat beradi.

Umuman olganda, mazkur normalar orqali erta nikohga qarshi kurashish faqat taqiy yoki jazo bilan chegaralanib qolmaydi. Bu tushuncha mazmunan kengayib, aniq chegaralarni amalda namoyon etadi: idoralararo zanjir tizimi hosil qilinadi, o'zaro hamkorlik mas'uliyatini oshiradi. Shu bilan birga, barcha huquqiy harakatlar oila — bezavol qadriyat, nikoh — muqaddas degan ko'p asrlik sharqona qarashlarimizga hamohang tarzda tizimli bajariladi.

Erta nikohning oldini olish, oila institutini yanada mustahkamlash

masalasi ham farmonda tub yondashuv taklif etilmoqda: bir tomondan, erta nikohga qarshi qat'iy kurashish, ikkinchi tomondan, moliyaviy mustaqil va oilaga tayyor yoshlar o'rtasidagi nikoh rishtasini rag'batlantirish. Maqsad nikoh shartnomasini qo'llab-quvvatlash orqali oilaning mustahkam huquqiy poydevorini yaratishdan iborat. Oilani turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobiga tushib qolishdan asrash, muammolarning barvaqt oldini olish o'ziga xos himoya mexanizmi shakllanishiga zamin bo'lmoqda.

Ilm olish, kasb-hunar egallash istagidagi qizlarning turmush va oiladan, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda tahsilni davom ettirish imkoniyati yanada kengaymoqda. Bo'lg'usi talaba onalar yoki 3 yoshgacha farzand tarbiyasi bilan band talabalar uchun "ikkinchi imkoniyat" yaratish, shuningdek, tanlovga ko'ra ta'limni masofadan davom ettirish tashabbuslari orqali yosh onaning ta'limdan uzilib qolmasligi ko'zda tutilmoqda. Bu esa butun bir oilaning barqarorligi va farzandlar kelajagiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta. Shu kabi islohotlarning natijasi bir yoki ikki yilda emas, yaqin o'n yillikda bo'y ko'rsatishi, umummilliy farovonlikka hissa qo'shishi shubhasiz.

Farmon ijrosini so'zsiz ta'minlash birgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki alohida idoralarning vazifasi emas, balki hamjihat, birdam jamiyatning ham o'z tashabbusi va takliflarini ilgari surishi, bu masalalarda bir yoqadan bosh chiqarib, bir musht bo'lishi, shu bilan birga, keng qamrovli targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yishi nazarda tutilgan. Chunki murosasizlik muhitini, avvalo, jamoatchilikning ongi va munosabatida qaror toptirish lozim.

Mazkur farmon yangi O'zbekistonning inson qadri ulug'lash siyosati, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish borasidagi qat'iy pozitsiyasini yana bir bor aks ettiradi. Istiqbolida ushbu muhim hujjatda belgilangan vazifalarni idoralararo hamkorlikda, tahliiliy yondashuv asosida, aniq mexanizmlar va samarali monitoring orqali amalga oshirish talab etiladi. Mushtarak maqsad shu: xotin-qizlar va bolalar farovon muhitida yashaydigan barqaror jamiyatni, xavfsiz davlatni barpo etish.

O'ZBEKISTON - TURKIYA: OG'IR DAMDA HAM, YAXSHI KUNLARDA HAM BIR-BIRIGA YELKADOSH



Prezident tashabbusi amalda

Boshlanishi 1-betda

Gap shundaki, davlatimiz rahbari joriy yil yanvar oyida Turkiyaga rasmiy tashrif chog'ida Hatay viloyatining Arsuz tumanida "O'zbekiston" turar joy majmuasi ochilishi marosimida turkiyalik qardoshlarni, xususan, Hatay aholisi vakillarini yurtimizga sayohat va Navro'z bayramiga taklif qilgan edi. Ana shu taklif asosida Turkiyaning Hatay viloyati hokimi o'rinbosari Mehmet Tural boshchiligidagi 200 ga yaqin hataylik O'zbekistonga keldi.

Mehmonlar orasida uch yil oldin Turkiyada yuz bergan talafoti zilzila jabrdiydalari hamda yetim, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ham bor. Ularning uzoq yillik qalb yaralariga O'zbekistonga tashrif buyurishi qaysidir ma'noda malham bo'lishi shubhasiz.

Zero, mehmonlar aeroportidanoq o'zbekona mehmondo'stlik, kuy-qo'shiq, karnay-surnay sadolari ostida milliy raqs va o'yin-kulgi bilan kutib olindi.

Ular uchun Andijon — Samarqand — Xiva yo'nalishi bo'yab 5 kunlik sayohat dasturi tashkil etilgan. Ushbu fursat qardoshlarimiz uchun hayotining unutilmas lahzalariga aylanishiga shubha yo'q. Chunki mehmonlar har bir hududda o'ziga xos bayram tadbirlarida qatnashib, diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurmoqda.

Navro'z nafaqat yangilanish bayrami, do'stlik-birodarlik, qardoshlik, mehr-oqibat, milliy tiklanish kuni hamdir. Shunday ulug' kunlarda qardoshlarimizning biz bilan birga bo'lishi mamlakat o'rtasidagi abadiy do'stlik, birodarlik zanjirlari yanada mustahkamlanib borayotganidan darakdir.



Sizdek qardondalarimiz bor ekan, har qanday musibatni oson yengib o'tamiz



Fatihbek EROG'LU,
Hatay viloyati Arsuz tumani
hokimi

2023-yil fevral oyidagi yer qimirlashida O'zbekiston yordam qo'lini cho'zgan ilk birodar davlatlardan biri. Tabiiy ofat bilan bog'liq og'ir kunimizda yonimizda qo'llab-quvvatlab turdi.

O'zbekiston hukumati Arsuz tumanimizda 308 ta zamonaviy turar joy barpo etdi. Ular tumandagi yurtdoshlarimiz uchun qurilgan ilk binolar bo'ldi. "O'zbekiston" turar joy

majmuasi deb nomlangan ushbu massivning rasmiy ochilish marosimida ishtirok etgan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bizni Navro'z bayramini nishonlash uchun ota yurtimiz — O'zbekistonga taklif etgan edi. Ushbu tashabbus, davlatimiz rahbarining samimiy taklifi va yaratib bergan imkoniyati tufayli zilzila jabrdiydalari na yerga olib keldik. Ramazon hayiti Navro'z bayrami bilan bir pallaga to'g'ri kelganidan sayohatimiz yanada go'zal bo'ldi.

Bu yerga kelgan tumandoshlarimiz men bilan o'z taassurotlarini o'rtoqlashmoqda. Ular sizlarning mehmondo'stligingiz hamda ochiq chehra, katta shodiyona bilan kutib olganingizdan juda ham xursand. Yurtdoshlarimizning aksariyati birinchi marta O'zbekistonga kelishi. Ularning taassurotlari va his-hayajonlarini ifodalashga til o'z.

2023-yil 6-fevral kuni biz katta fojiani boshdan o'tkazdik. Ammo sizlardek do'stlarimiz, qardoshlarimiz qo'llab-quvvatlab turar ekan, har qanday musibatni yengib o'tamiz. Kelgusida ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik aloqalari yanada mustahkamlanib borishiga tilakdoshman.

O'zbekona mehmondo'stlikka shaxsan guvoh bo'ldim



Kubra BAL,
jurnalist (Turkiya)

O'zbekistonga sayohatimiz ko'tarinki kayfiyatda boshlandi. Aeroportning o'zidayoq tashkillashtirilgan tantanali kutib olish marosimi barchamizning ko'nglimizni chog' qildi. Kuy-qo'shiq, raqs va boshqa tadbirlar

qalbimizga bayram kayfiyatini ulashdi. Meni eng lol qoldirgani o'zbek o'g'il-qizlarining milliy liboslari maftunkorligi bo'ldi. Atlas-u adraslarning tarovatini ta'riflashga so'z yetmaydi.

Navro'z bayrami sayillari, turli tomoshalar, teatr va taqdimotlarni ko'rib ko'zlarimiz quvnamoqda. Zero, Navro'z barcha turkiyalik xalqlarning asrlar osha yashab kelayotgan umumxalq bayramidir.

Tarixiy ildizlarimiz birligi bois, bir-biriga o'xshash qadriyat va an'analarni ko'rib hayratlanaymiz. O'zbekistondan olam-olam taassurot, bilim, quvonch hamda ko'tarinki ruh bilan yurtimizga qaytamiz.

Ota yurtimiz xalqi — qardosh o'zbeklarning mehmondo'st va ochiq chehrali kishilar ekani ko'p bor eshitgandim. Bu yerga kelib, eshitganlarim to'g'riligiga o'zim shaxsan guvoh bo'lyapman. Bunday tashabbus va tadbirlar ikki xalqni, davlatlarimizning qardoshlik va do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlaydi.

Tarixiy ildizlarimiz birligi bois, bir-biriga o'xshash qadriyat va an'analarni ko'rib hayratlanaymiz. O'zbekistondan olam-olam taassurot, bilim, quvonch hamda ko'tarinki ruh bilan yurtimizga qaytamiz.

Buyuk insonlarni yetishtirgan ulug' zamin



Mehmet SEYFETDIN,
professor (Turkiya)

Avvalo, o'zbekistonlik qardoshlarimizga talafoti zilzila oqibatlarini bartaraf etishdagi yordami, qo'llab-quvvatlovi uchun tashakkur bildiraman. Ularning ko'magi ko'nglimizga malham bo'ldi.

Bugun Arsuz tumanida yashovchi yurtdoshlarimiz O'zbekiston tomonidan barpo etilgan zamonaviy turar joylarda go'zal hayot kechirmoqda. Hataydagi rasmiy ochilish marosimida Prezident Shavkat Mirziyoyev bizni Navro'z bayramini o'tkazish uchun O'zbekistonga taklif qilganida juda

xursand bo'lgandim. Sababi, ota yurtimiz — O'zbekistonga kelish ko'p yillik orzularimdan biri edi. Mana, bugun o'sha tashabbus orqali orzum ushlaganidan juda mamnunman.

Bugun amin bo'ldimki, O'zbekiston va Turkiya yaxshi kunlarda ham, og'ir kunlarda ham birga bo'la oladigan, bir-biriga beg'araz yordam qo'lini cho'za oladigan qardosh davlatlardir.

O'zbekistondagi butun dunyoga mashhur, ayniqsa, bizlar uchun juda ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolarini ziyorat qilish imkoniyatiga ega bo'lish, ochig'i, katta sharaf.

Jumladan, Andijon shahri menga juda yoqdi. Bu yerga tug'ilgan Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat ikki xalq, balki dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk shaxsdir. Uning tug'ilib o'sgan shahri ziyorat qilish menga ulkan faxr-iftixor bag'ishladi.

Andijon xalqining mehmondo'stligi bizni juda xursand qildi. Istdardimki, bundan keyin ham O'zbekiston boy madaniyati, unumdor yerlari, rivojlangan infratuzilmasi va mehnatkash insonlari bilan yanada ravnaq topsin. Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk tarixiy shaxslarni yetishtirib chiqqan bu ulug' zaminida kelgusida ulardan ham buyuk insonlar dunyo tarixida o'chmas iz qoldirishi shubhasiz.





Yangi O'zbekiston ruhi

WASHINGTONDAN TERMIZGACHA



Azamat ZIYO, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, akademik

qir yilda jilovini hech kimga bermagan afg'on davlati bilan muomala tilini topa olgan, transafg'on temir yo'lini xomxayoldan voqelikka aylantirgan, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Yevropa bilan bir maromli va o'zaro foydali siyosiy-iqtisodiy hamkorlikni o'rnatgan, o'zbek davlati manfaatli Janubiy Amerikagacha yetib borishini bildirib qo'yan ham O'zbekiston rahbari ekanini juda yaxshi biladi!

Qisqasi, AQSH Prezidenti Vashingtonga Tinchlik kengashi a'zolaridan biri emas, balki ham o'z yurti, ham keng ko'lami xalqaro munosabatlarda salmoqli natijalarga erishib bo'lgan atoqli arbob — Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurayotganini juda yaxshi anglagan!

Kengashning ilk yig'ilishi O'zbekiston yetakchisining mazkur ustunlik va fazilatlarini yana bir marta tasdiqlab berganini butun dunyo ko'rdi, siyosatchilar esida qoldi, tahlilchilar va ommaviy axborot vositalari e'tibordan qochimadi. Nufuzli tadbirdagi rasmiy chiqishlarni birma-bir ko'zdan kechirar ekanmiz, ularning ko'pi mezbonga mulozamatdan iborat umumiy yo'sindagi bo'lgani holda O'zbekiston Prezidenti o'z ish uslubiga sodiq qolib, butun diqqatni muammo va yechimiga qaratdi. Jumladan: "Birinchidan, kengash ishi G'azto mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy qayta tiklash uchun qulay sharoit yaratishga imkon berishi kerak. Ikkinchidan, G'aztoning har qanday tashqi boshqaruv mexanizmi sektor aholisining so'zsiz ichki yo'llab-quvvatlashiga tayanishi lozim. Uchinchidan, barcha sa'y-harakatlar G'aztoni tez fursatda qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi kerak. To'rtinchidan, "Biz Yangi G'aztoni — iqtisodiyotni farovon, aholi uchun munosib turmush sharoitlariga ega bo'lgan mintaqani barpo etish uchun ushbu tarixiy imkoniyatdan foydalanishimiz zarur", dedi.

O'zbekiston ushbu hududda turar joylar, bolalar bog'chalari, maktab va kasalxonalar barpo etishga imkon qadar hissa qo'shishga tayyorligi borasidagi ta'kidni esa davlatimiz rahbarining xoh o'z yurtida bo'lsin, xoh chet elda, muammo bor yerga quruq qo'l bilan emas, aniq mablag' va loyihalar bilan borishdek ish uslubini yana bir bor namoyon etdi.

Vashington O'zbekiston rahbarining muammolar hal etiluviga qaratilgan yana bir yondashuviga shaxsan guvoh bo'lganiga urg'u bermaslik mumkin emas. U ham bo'lsa, chigal yechimini joyidayoq ta'minlash! AQSHdagi yirik bank, ishlab chiqarish, sarmoya tuzilmalari yetakchilari hukumatimiz a'zolari, hokimlarimiz ishtirokida o'tkazilgan videosektor yig'ilishida bunga shaxsan guvoh bo'ldi. Ular Prezidentimizning O'zbekiston — AQSH hamkorligi ishonchli, qoidalari aniq-ravshan, uzoq muddatli bo'lishi mantiq'iga asoslanishi borasidagi ta'kidini juda yaxshi tushundi deb o'ylaymiz.

Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Davlatimiz rahbarining ish uslubini shunday! Aks holda, 12 soatdan ortiq vaqtda 10,5 ming kilometr yo'l bosib, okeanortidan qaytilgan kunioyq Qoraqalpog'istonning bugungi ahvoli tahlili va ertangi rivoji bilan bog'liq keng qamrovli masala bilan shug'ullanmagan bo'lardi. Shu ma'noda, 1997-yildan 2016-yilgacha o'tkazilgan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yarim va



tonna sement, 256 million kub metr qurilish va pardozbop toshlar, 200 million tonna ohak, 31 million kub metr keramzit, 27 million kub metr g'isht xomashyosi, 6,9 million tonna shisha, 6,5 million tonna gips, 4,3 million tonna vermilluk zaxiralarga egaligiga alohida urg'u berdi. Boshqacha aytganda, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammo yechimini o'sha yerning o'zida topsa bo'ladi, aniqrog'i, bo'lar ekan. Gap ularni ko'rish va yuzaga chiqara olishda.

Yangi O'zbekiston shu yo'ldan ketmoqda. Buning isbotini Qoraqalpog'iston misolida ko'rish mumkin. Sakkiz yil oldin hudud iqtisodiyoti aholi jon boshiga hajm bo'yicha eng oxirgi o'rinda edi, bugun esa yettinchi o'rinda ko'tarilgan! Ilgari sanoat mahsulotining atigi 4 foizi eksportga chiqqan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 30 foizga yetgan. Umumiy eksport 2016-yildagiga nisbatan 3,5 barobar oshib, 2,1 milliard dollarni tashkil etmoqda.

“ QISQASI, “QAYDASAN, TERMIZ”, DEB YO'LGA TUSHIB, TOSHKENT, SIRDARYO, JIZZAX, SAMARQAND, QASHQADARYO VILOYATLARI BO'YLAB YURAR EKANMIZ, TILGA OLINGAN VA HECH QAYERDA YOZILMAGAN “O'ZIMIZGA XOS VA O'ZIMIZGA MOS” QOIDA — POYTAXT, SHAHARLAR, QISHLOQLAR O'RTASIDAGI KESKIN IJTIMOYIY-IQTISODIY TAFOVUT YO'QQA CHIQQANIGA SHAXSAN GUVOH BO'LDIK.

Mazkur ko'rsatkichlar orasida diqqatimizni tortib, tahlilga undagan Qoraqalpog'istonga to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoya hajmi 2025-yili 2,5 milliard dollarga yetganidir. 2016-yil yakunlariga ko'ra, butun milliy iqtisodiyotimizga jalb etilgan chet el sarmoyasi va qarzlari 3,7 milliardga teng bo'lgani inobatga olinasa, yangi O'zbekistonning har bir bo'lagida yuz berayotgan chindan ham tarixiy va sifat o'zgarishlarining siri yaqqol oydinlashadi-qoladi.

Qoraqalpog'iston misolidagi kichik tahlil ushbu sirning nimadiligiga ishora bergan esa-da, so'zimizni davom ettirib, davlatimiz

binolari, eng muhimi, uy-hovillar, mahallalar ichki yo'llarida yuz berayotgan barcha sifat o'zgarishlari viloyat, tumanlarimiz, shahar va qishloqlarimizga kirib borib bo'lgan.

Deputatlik yillarimizda necha marta Surxonga kelib-ketgan bo'lsak, biroq universitetga ham bir o'taylik degan emas, o'zimizning ham xayolimizga kelganmas. 2023-yilda ushbu dargohga ilk bor qadam bosib, professor-o'qituvchilar va talabalar bilan rosa gurung qilgandik. O'shandayyoq universitetning butun infratuzilmasi, o'quv va ilmiy imkoniyatini ko'rib, ancha-muncha katta va kuchli ekani, mazkur maralarga so'nggi yillarda davlatimiz rahbarining e'tibori va qo'llovi tufayli erishilayotganini bildik.

Universitetgabugul ham bordik. Uning ilmiy-tadqiqot markazida bajarilayotgan innovatsion ishlanmalar va turli yangi natijalarni ko'rib, bularni rostdan ham o'zlarimiz qilyapsimiz, bu yerda shunday olimlar bormi degan savolni bir necha marta berishga to'g'ri keldi. Tasdig'ini olgach, Prezidentimizning maktabgacha va maktab ta'limining emas, oliy ta'lim va ilmi-fanni butun O'zbekiston bo'ylab rivojlantirish siyosati qanchalik to'g'ri va oqilona ekaniga tan berdik, eng asosiy, maqtaasa arziqlik ilk salmoqli natijalarga shaxsan guvoh bo'ldik.

Shu ma'noda, chuqurroq o'yab ko'rsak, mustaqil bo'lib ham imperiyachilikka xos qarash — siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy boshqaruv, ilm-fan, oliy ta'lim, madaniyat tizimini metropoliya-markazda tutib, mustamlakalarni qarayotganidan ular ushlab siyosatini endi o'z doiramizda davom ettirib yurayotgan ekanmiz.


Bunday xulosaga markaz binosining yettinchi qavatida tarixchi, adabiyotchi va tilshunos olimlar, o'qituvchilar bilan uchrashuv chog'ida tug'ilgan bir tuyg'u uzil-kesil turki berganini yashirib o'tirmaymiz. Minbarda turib, ijtimoiy fanlar, xususan, tarixi fanni tizim o'lraq tubdan o'zgartirish zarurati, sohadagi og'ir muammolar va ularning yechimi haqida so'zlab turarkanmiz, ko'zimiz birdan derazadan ko'rinib turgan ko'p qavatli uy-joylar silsilasi, yangi qad ko'targan mavzularga tushib, ochig'i, g'lati bo'lib keldek. Tilda mavzuni davom ettiraversak-da, miya to'xtamay mantiqli va adolatlil savollar bilan o'qqa tutardi: nega atigi to'qqiz yil burun bunday manzarani tasavvur etishning o'zi mumkin emasdi, sement, temir, ko'targichlarni o'zimizda topish shunchalarga qiyinmide, boshqalar yurtida quruvchilik qilib yurgan surxonliklar bu yerda uylar qurulmasidi, "To'palang"dan tayyor ichimlik suvni tortib kelib, 1,5 million qorako'z — butun viloyat ahlining yarmidan ko'pini baxtli qilishga nima xalal bergandi, bugun Termizning ayatlanma yo'llari ham kaftdek tekislikda azim Toshkentdagidan qolishmayotganda, o'z yil turan hatto Sharq darvozasi ko'chalarini asfaltlashga mazut topilmaganining siri nimada edi?!

Savollar tug'ilishi Prezidentimizning Surxondaryo viloyatini har tomonlamma rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzalarini tinglash, ushbu tadbirdagi xalqchil muhitni kuzatish chog'ida ham davom etdi.

So'nggi to'qqiz yilda vohada bog'chaga qamrov 28 foizdan 68 foizga oshgani, 23 ta yangi maktab qurilib, yana 448 tasi ta'minlanganiyu qo'shimcha 102 ming o'quvchi o'rni ochilgani, 688 ta ko'p qavatli uyga 32 ming oila ko'chib o'tgani, Angor, Boysun, Jarqo'rg'on, Sariosiyo va Termiz tumanlarida "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etilayotgani, ba'zi maktab o'qituvchilarining 2000 dollarga teng daromad topayotganiga oid ma'lumotlar o'ta quvonarli va hatto hayratlanarli. Bundan tashqari, tilga olingan ko'rsatkichlar zamirida yuz minglab surxonliklar taqdiri, lo'nda aytganda, ularning ham bu dunyoga kelib, XXI asr odamiga o'xshab yashash, o'g'il-qizlarining kamoli va baxtini ko'rish umidi va istagi ushlayotgani haqiqati borligi ko'zda tutilsa, nahotki, shu ishlarini oldinroq qilishning iloji yo'q edi degan savol o'z-o'zidan quyilib kelishi tabiiy.

Bu singari adolatlil savol-so'roqlar kaminadagina emas, balki so'nggi to'qqiz yilda o'z oilasi, mahallasi, qishlog'ini, shaharining turish-turmushi, chirog'i, gazi, suvi, mahalla guzari, farzandlari qatnayotgan bog'chamaktab, universitetlar, o'zi va yaqinlari muolaja oladigan poliklinika, shifoxona, yuradigan yo'li, bank, moliya, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining soni va sifati, chet ellarga sayohati, qo'yingski, o'ta qisqa muddatda barcha-barcha sohada yuz bergan va yuz berayotgan tub, ayrim jihatlardan aytganda esa kechagina hatto orzu qilish mumkin bo'lmagan o'zgarishlarni ko'rib, bilib turgan yurtidoshlarimizda ham tug'ilmoqda.

Olti-yetti yil burun yangilanish jarayonining ilk natijalarini ko'rgan odamlarimiz "Bizda ham qilsa bo'lar ekan-ku", deya ham quvonish, ham qoniqish tuyg'ularini bildirgan bo'lsa, endi "Shu ishlar nega ilgari qilinmagan?" degan savolni qo'yimoqda. Shaxsan biz uchun mana shuni o'ta muhim. Negaki bu — qorako'zlarimiz tafakkurida yuz berayotgan sifat o'zgarishlarining tasdig'i. Demak, yurtidoshlarimiz o'z taqdirining ojiz tomoshabinini emas, balki haqqoniy egalari bo'lish sari ildamlamoqda. Endi ularga "bo'lar



bir yillik yakunlariga bag'ishlangan deyarli barcha yig'ilish guvohi sifatida bir narsa esga tushadi. Har qanday milliy iqtisodiyotning tirikligi sanalgan pul-kredit sohasidagi vaziyat bo'yicha har gal fikr bildiradigan Markaziy bank raisi "Hammasi yaxshi, faqat Shumanya tumanida ayrim kichik muammolar bor", deb qo'yardi. Boshqa iloji ham yo'q edi. Butun yurt u yozda tursin, biror hudud, aytaylik, Qoraqalpog'istondagi ayanchli ahvol, masalan, Mo'ynoqning qismati haqida so'z ochish mumkin emasdi...

Bugun barchasini ochiq aytsa bo'ladi. Aytishgina emas, uzoq vaqtlardan buyon yechimini kutib yotgan muammolarni hal qilish imkoni bor! Bo'lganda ham o'sha hududning o'zida bor. Masalan, mazkur yig'ilishda Prezidentimiz Qoraqalpog'iston 270 million

rahbarining oradan bir hafta o'tib, Termizga tashrifiga e'tibor qaratsak.

1998-2004-yillari Surxondaryo viloyatidan Oliy Majlis deputati bo'lgan kamina uchun mazkur voha va el juda yaqin. Deputatlik kezarida saylovchilar bilan uchrashuvlarga borar ekanmiz, yuqori darajadagi izzat-hurmat, surxonliklarning tani va mardligiga qaramay, bir kecha ham yotib qolmaslikka intilganimizni bugun tan olamiz. Sababini endi ro'y-rost aytish mumkin: Toshkent ham juda ilg'orlab ketmagani holda Termiz ancha qolqoq edi. O'zimiz saylangan Sherobod, Angor tumanlarini aytmasa ham bo'ladi. Eng aziz mehmonlar uchun mo'ljallangan makon — viloyat hokimligi qo'nog'i ham kishini bir tunab ketishga "ko'ndira olmasdi".

da, chiroyli va ozoda kiyintirib qo'rgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga intilishi, bilimga chanoqligi, maktabga qatnay boshlaganidan cheksiz quvonishiga shaxsan guvoh bo'lish, biroq shunga yarasha sharoitining yo'qligini o'z ko'zingiz bilan ko'rib, buning turli yo'qatiblarini aqlingiz bilan anglab turish edi...

Prezidentimizning Surxondaryoga bu galgi tashrifidagi tadbirlarga taklif etilganim tufayli Termizni yana bir bor ko'rish, hamkasblar bilan uchrashish imkoni tug'ildi. Yangi O'zbekiston davrida Surxonga ilk borishim esa 2023-yil bahoriga to'g'ri kelgandir. Tabiat o'z sepinii yoyib turgan palla bo'lgani sabab Toshkentdan Termizgacha mashinada ketishga jazm qilgan, o'shanda yangi O'zbekiston ruhi butun yurtimizni qamrab olganining guvohi bo'lgandik. 2016-yil kuzida har birimiz, jamiyat va davlat hayotida boshlangan hal qiluvchi va tarixiy o'zgarishlarning aynan ushbu jihatiga diqqatini tortishimiz bejiz emas.

Gap shundaki, mustamlaka davridan boshlab yangilanishlar pallasigacha kechgan va o'zimiz eslash, anglash darajasida bo'lgan qirq-ellik yil ichida bir qoida ko'pchiligimiz uchun tabiiy sanalgan. U ham bo'lsa, Toshkentdan chiqib, qay tomon yuzlanmaylik, poytaxt, viloyat va tuman markazlari, qishloqlarimiz o'tasida keskin farq borligi darrov sezilardi. Toshkentdagi nisbatan mo'tadil shart-sharoit (yo'llarning holati, imoratlar, jumladan, uylar, xizmat ko'rsatish darajasi va ko'lami, yonilgi) qiyish shoxobchalarning har holda ishlab turishi va boshqalar) undan uzoqlashgan sayin susayib, yo'qolib boraverardi.

Qisqasi, "Qaydasan, Termiz", deb yo'lga tushib, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari bo'ylab yurar ekanmiz, tilga olingan va hech qayerda yozilmagan "o'zimizga xos va o'zimizga mos" qoida — poytaxt, shaharlar, qishloqlar o'rtasidagi keskin ijtimoiy-iqtisodiy tafovut yo'qqa chiqqaniga shaxsan guvoh bo'ldik.

To'g'ri, hali qiladigan ishimiz juda ko'p, muammolar ham yetarli. Biroq Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan yangilanishlar ruhi jonajon O'zbekistonimizning har bir burchagiga yetib bergani va o'sha yerlardagi hayotni o'zgarishga majbur qilayotganini hech kim inkor eta olmaydi! Toshkentning kundalik turish-turmushi — me'morchiligi, xizmat ko'rsatish tizimi, ta'lim, tibbiyot muassasalari

ekan-ku", deiysh qiziqmas, ular "nega ilgari bo'lmagani"ni bilishni istamoqda! Demak, hozir ularga o'tmishda boy berganlarimizning ham, keyingi to'qqiz yilda qo'lga kiritilgan barcha marra va yutuqlarimizning ham sabab va omillarini tushuntiruvchi tahlillar kerak.

Mazkur ish bugun unchalik ham qiyin emasligini bilamiz. Chunki ixtiyorimizda har bir oila, mahalla, qishloq va tuman hayoti, tarmoqlar rivoji bilan bog'liq cheksiz va jonli dalillar bor. Milliy axborot makonimiz va statistika ko'rsatkichlarining ko'lami ham juda keng. Bu borada, ayniqsa, Prezidentimizning har bir chiqishi va tahlili o'ta qo'l kelishini ham alohida ta'kidlagan bo'lardik. Aytaylik, Surxondaryo hayotidagi tarixiy o'zgarishlarning iqtisodiy omili Termizdagi ma'ruzada aniq-tiniq ko'rsatilgan: o'tgan davrda hududda 5 milliard dollarlik 8000 dan ortiq loyiha ishga tushirildi. Xitoy, AQSH, Rossiya, Hindiston, Avstriya, Vengriya kabi davlatlar bilan investitsiya va savdo bo'yicha yana 10 milliard dollarlik kelishuvlarga erishildi.

Demak, viloyatdagi maralar, eng avvalo, hudud iqtisodiyotida ro'y bergan tub sifat o'zgarishlari bilan bog'liq. Agar yuqoridagi tilga olingan ma'lumot — 2016-yili milliy iqtisodiyotimizga chetdan bor-yo'g'i 3,7 milliardlik sarmoya va qarz jalb etilganini eslasak, bugun birgina Qoraqalpog'iston yoki Surxondaryoning iqtisodiy qudrati butun bir davlatimizning kechagi ko'rsatkichidan qolishmayotganini tasdiqlaydi-qo'yadi.

Termizdagi yig'ilish kamina uchun yana bir jihati bilan qimmatli bo'ldi. U ham bo'lsa, tarix xalqchil bo'lgani holda, uni aslida shaxslar yaratishiga oid qarashimizni tasdiqlovchi hamda istiqloq yillari ro'y bergan ayrim voqealar bo'yicha bilimimizni boyituvchi qimmatli dalillarni qo'lga kiritishga erishdik.

Davlatimiz mustaqilligi tiklangach, oldimizda turgan eng katta va og'ir ishlaridan biri O'zbekistonni xalqaro maydonda tan oldirishdan iborat bo'lgani hal-hamon esimizda. Shu ma'noda, Eron Prezidenti Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniyning 1993-yil oktabrdaq davlat tashrif alohida ahamiyat kasb etishi tabiiy edi. Ushbu yuksak martabali mehmon kamina o'sha kezlarda ishlab turgan Sharqshunoslik institutiga ham kelgan va olimlar bilan uchrashgan. Bundan, ayniqsa, bir, eronshunoslar juda quvonganmiz. Shu tariqa uzbura yurtga yo'l ochilishi, u yerda saqlanayotgan, tariximizga oid qo'lyozma asarlardan bahramand bo'lishga umid qilganmiz. Biroq davlatimiz rahbari Termizdagi yig'ilishda aytib bergan bir tarixiy tafsilot — o'sha kuni institutimiz binosidan bir necha o'n qadam narida yuz bergan voqea endigina mustaqil qadamini qo'yayotgan mamlakatimiz sha'niga o'chmas dog' tushirishidan tashqari yangi O'zbekistonimiz asoschisi bosib o'tgan yo'lining qanchalar qaltis bo'lganini ko'rsatib berdi.

Demak, o'sha kuni ertalabki soat 10 da ikki davlat rahbarlari Mirzo Ulug'bek haykaliga hurmat bajo kelirib, so'ng Sharqshunoslik institutiga o'tishi rejalashtirilgan. Bundan o'sha kezlari Mirzo Ulug'bek tumani hokimi bo'lgan, mazkur ma'muriy hudud uchun birinchi javobgar shaxs — Shavkat Mirziyoyev ham xabaridorligiyu tashrif bilan bog'liq barcha tegishli tayyorlik ishlarini ko'rib-yilgani tabiiy. Ammo soat o'nta kam yetidda — davlat miqyosidagi tadbirga uch soatcha qolganida, haykalinig boshi tom ma'noda kesib ketilgani ma'lum bo'lishi hech qanaqasiga, kutilmaganligidan tashqari, bugun ham aqlga sig'maydi.

Bundan tez xabar topgan Shavkat Mirziyoyev sarosimaga tushmagan, bunday paytlarda har qanday insonni egalab olishi muqarrar chorasizlik his-tuyg'ulari ham berilmagan. Qolaversa, o'sha kezlari ayrim kattakonlarning qanday bo'lmasin, uni yo'qotish payiga tushganlariniy katta kuch sarflaganiga qaramay, o'ziga qarshi biror ayb topolmagani va topolmasliklari ham yaxshi bilgan. O'sha hal qiluvchi daqiqalarda xayolini nima band qilganini Prezidentimizning o'zi mana bunday tushuntirib berdi: "Ularning muddaosi bitta bo'lgan — meni yo'qotib, biroq men-ku, mayli, ular hatto millatimiz va davlatimiz obro'siga yetkaziladigan ulkan ziyon haqida o'ylab ham o'tirmagan".

Eng muhimi, o'ta qisqa muddatda haykalni o'zidek qilib tiklab, oliy maqomdagi mehmonning ham Mirzo Ulug'bek haykali, ham Sharqshunoslik institutiga tashrifini yuksak darajada o'tkazishni ta'minlagani haqida eshitganimizda o'sha o'ta xunuk, biroq oxiri xayrli tugagan voqeadan 33-yil o'tib, Donald Tramping "Prezident Mirziyoyev har qanday muammoni hal qiladigan inson", deb aytganini esladik.

Chindan ham Shavkat Mirziyoyev 2016-yil kuzidan emas, allaqachondan buyon millati, davlati, xalqiga qayg'urib kelgan, butun yonilgi va umrini qorako'zlarining og'irini yengib, hayotini baxtli qilishga bag'ishlagan, yangi O'zbekistonni yaratishdek o'ta og'ir va qaltis, biroq sharaflil ishga ishonch bilan kirishgan, juda qisqa muddatda umummilliy va xalqaro miqyosda olamshumul maralarini zabt eta olgan buyuk shaxsdir.

Tojikistonning O'zbekistonga eksporti nomenklaturasi ham tobora kengayib bormoqda. Masalan, 2025-yilda qo'shni davlatning mamlakatimizga umumiy eksporti qiymati 229,3 million dollarga yetdi.

Xalqaro hamkorlik

O'ZBEKISTON – TOJIKISTON:

IQTISODIY ALOQALARDA TUB BURILISH

Odil OLIMJONOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar
markazi bosh ilmiy xodimi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Tojikiston bugun ham O'zbekistonning davr sinovidan o'tgan ishonchli hamkori, do'stidir. Hozir ko'p qirrali hamkorlikning barcha yo'nalishida ulkan taraqqiyot kuzatilmoqda. Ayniqsa, 2016-yildan boshlab O'zbekiston — Tojikiston munosabatlari tarixida tubdan yangi davr boshlandi. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar shiddatli rivojlanib, o'zaro do'stlik, qo'shnihilik va hamkorlik darajasi mazmun jihatidan boyidi, davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar haqli ravishda strategik sheriklikdan itifoqchilik maqomiga ko'tarildi.

2016-2025-yillarda O'zbekiston — Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning keskin kengayishi ham aynan ana shu yuksak itifoqchilik maqomi darajasida yuz berdi. Munosabatlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarda jadal rivojlanmoqda. O'zaro savdo hajmi oshib, sanoat kooperatsiyasi, energetika va transport yo'nalishlarida muhim, foydali loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, ikki davlat o'rtasidagi tashqi savdo qiymati 2016-yilda bo'yo'g'i 197,1 million dollarga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich davlatlarimizning mavjud iqtisodiy imkoniyatidan juda kam edi. 2016-2025-yillarda O'zbekiston — Tojikiston tovar almashuvi hajmi 912,3 million dollarga yetdi yoki 4,6 baravar oshdi.

Joriy yil 19-fevral kuni Dushanbada Tojikiston va O'zbekiston Bosh vazirlari ishtirok etgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha 13-hukumatlararo komissiya yig'ilishida hamkorlik barcha yo'nalishda jadal rivojlanayotgani qayd etildi va uni kelgusida yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Bu jarayonda har ikki davlatning chegaradosh hududlari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish juda muhim va ayni borada qator chora-tadbirlar ko'rilayapti. Jumladan, Surxonodaryo bilan Xatlon, Samarqand bilan So'g'd viloyatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

2018-yil aprelda Samarqand shahrida So'g'd viloyati ishlaboluvchi doiralari ishtirokida sanoat yarmarkasi o'tkazilgandi. An'angaya aylangan mana shunday sanoat yarmarkalari qo'shni viloyatlarning ishlaboluvchilari o'rtasida o'zaro kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Tadbirlar doirasida ikki viloyat tadbirkorlari o'rtasida juda ko'p biznes va hamkorlik shartnomalari imzolandi. Savdo-iqtisodiy aloqalar rivojida davlatlarimiz o'rtasidagi 17 ta chegaranazorat punkting barchasi to'liq faoliyat yurita boshlagani muhim ahamiyat kasb etyapti.

O'zaro savdo tarkibi kengaymoqda

2016-yilgacha bo'lgan davrda ikki davlat o'rtasida o'zaro savdodagi mahsulotlar nomenklaturasi cheklangan bo'lib, bu qo'shni



mamlakatlar salohiyatidan ancha past edi. Itifoqchilik maqomi o'zaro savdo tarkibiga ham juda katta ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Jumladan, Milliy statistika qo'mitasi dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonning 2025-yilda Tojikistonga eksport qilgan mahsulotlari umumiy hajmi 683,1 million dollarga yetgan bo'lsa, uning tarkibida 222,7 million dollarlik sanoat mahsulotlari (turli trikotaj va plastmassa mahsulotlari, metall prokati va boshqalar), 58,7 million dollarlik mashina va transport jihozlari (elektrotexnika va boshqa jihozlar), 53,1 million dollarlik mineral mahsulotlar (benzin, bitum, gaz), 53 million dollarlik kimyoviy mahsulotlar (polimer, sulfat, silikat, o'g'it, bo'yoq), 48,2 million dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari (chorva uchun ozuqa, tuxum, qandolchilik mahsulotlari, tayyor go'sht mahsulotlari va boshqalar), 21 million dollarlik turli tayyor mahsulotlar (qurilish materiallari, tayyor kiyim, ipak matolari), 147,4 million dollarlik xizmatlar (asosan temir yo'l transporti) kabilardan iborat bo'ldi.

Tojikistonning O'zbekistonga eksporti nomenklaturasi ham tobora kengayib bormoqda. Masalan, 2025-yilda qo'shni davlatning mamlakatimizga umumiy eksporti qiymati 229,3 million dollarga yetdi. Uning tarkibi ruda va konsentratlar (rux, mis va qimmatbaho metallar — 108,9 million dollarlik), toshko'mir (22,3 million dollarlik), elektr energiyasi (17,9 million dollarlik), paxta tolasi (17,6 million dollarlik), meva-cheva (7,4 million dollarlik), qora metall (5,1 million dollarlik), uy parandasi (2,4 million dollarlik), plastmassa chiqindilari (1,8 million dollarlik), jami 6,6 million dollarlik olingugurt,



dala shpati va xizmatlar (asosan temir yo'l xizmati)dan iborat.

Ulkan maqsadlarga birgalikda erishish mumkin

2016-2025-yillarda ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar shiddatli rivojlanganini qayd etdik. Shunga qaramay,



iqtisodiy aloqalar kengayishi uchun har ikki davlat ham ulkan imkoniyatlarga ega. Jumladan, 2025-yil yakunida Tojikistonning O'zbekiston umumiy tovar aylanmasidagi ulushi 2017-yildagi 0,9 foizdan 1,1 foizga o'sdi. Bu ko'rsatkich mamlakatimiz eksporti tarkibida 1,5 foizdan 2 foizga, importida esa 0,4 foizdan 0,5 foizga yetdi, xolos.

To'g'ri, oxirgi yillarda iqtisodiy hamkorlik darajasidagi o'sish sur'ati keskin oshmoqda. Masalan, 2025-yili tovar aylanmasi 2024-yildagiga nisbatan 22,5 foiz, eksport 24,1 foiz, import 13,8 foiz o'sishiga erishildi. Bunday o'sish o'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlaridan. Jumladan, xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha qo'shma klasterlar tashkil etish va ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni birgalikda uchinchi davlatlarga eksport qilish mumkin.

To'g'ri, oxirgi yillarda iqtisodiy hamkorlik darajasidagi o'sish sur'ati keskin oshmoqda. Masalan, 2025-yili tovar aylanmasi 2024-yildagiga nisbatan 22,5 foiz, eksport 24,1 foiz, import 13,8 foiz o'sishiga erishildi. Bunday o'sish

sur'atining davom etishi ikkala davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi hajmini keskin oshirib, 2 milliard dollarga yetkazishdek ulkan maqsadga tezda erishish mumkinligini ko'rsatib turibdi.

Buning uchun davlatlarimiz o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishning qator zaxira va imkoniyatlaridan samarali foydalanish taqozo etiladi.

mahsulotlarni xorijga sotish har ikki tomon — o'zbek va tojik ishlaboluvchilari, dehqonlarga, sanoat ishchilariga qo'shimcha katta foyda olish imkonini beradi.

So'nggi yillarda qator davlatlarda kasalliklarni davolashda kimyoviy dorilarni kamroq ishlatib, tabiiy o'simlik va g'iyohlardan ko'proq foydalanilayapti. O'zbek va tojik zaminida esa tabiiy dorilar ishlab chiqarish

Sanoat sohasida hamkorlikni rivojlantirish o'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlaridan. Jumladan, xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha qo'shma klasterlar tashkil etish va ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni birgalikda uchinchi davlatlarga eksport qilish mumkin.

To'g'ri, oxirgi yillarda iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishning istiqbolli sohasi. Yaqin yillargacha O'zbekistonda yetishtirilayotgan paxta xomashyosining 10-15 foizigina yurtimizda qayta ishlanar, qolgan 85-90 foizi xorijga tola va ip-kalava shaklida eksport qilinadi. Natijada paxta tolasini qayta ishlashdan keladigan foydaning asosiy qismi ham xorijdagi mato ishlab chiqaradigan, tayyor kiyim tikadigan va ularni sotadigan kompaniyalar hisobiga tushar edi.

O'zbekistonda paxta yetishtirish, tashish, saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish sohalarini so'nggi yillarda yagona nuqtada birlashtirildi, ya'ni paxta-to'qimachilik klasterlari tizimi tashkil etildi. Mazkur klasterlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi paxtachilik va to'qimachilik sohalarini rivojida yangi sahifa ochdi. Xomashyoni yetishtiruvchi va qayta ishlovchi tizimlar faoliyatini samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Xullas, paxta-to'qimachilik sohalarini klasterlar shaklida birgalikda rivojlantirish borasida O'zbekistonda katta tajriba to'plandi. Shundan kelib chiqib aytilish mumkin, hamkorlikda ikki davlat hududida sanoat kooperatsiyasi asosida to'qimachilik klasterlari tashkil etish katta istiqbolga ega. Zero, tayyor

uchun xomashyo bo'lgan turli-tuman o'simlik va shifobaxsh g'iyohlarga o'ta boy. Ana shu tabiiy boylikdan farmatsevtika sanoatida oqilona foydalanish bugun inson salomatligini saqlash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda davlatlarimiz farmatsevtika sohasida juda salmoqli ishlar qilyapti. Jumladan, O'zbekistonda farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay shart-sharoit yaratish, dorivor o'simliklar xomashyosini yetishtirish uchun noyob sharoitni inobatga olgan holda mahalliy dorivor vositalar bozorini yuritimidagi ishlab chiqarilgan yuqori sifatli dori-darmon bilan to'ldirish maqsadida 2017-yili Prezidentimizning maxsus farmoni bilan "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etilgandi.

Farmatsevtika sohasida tashkil etilgan 7 ta erkin iqtisodiy zona orqali dorivor o'simliklar xomashyosini o'ziga xos tabiiy sharoitlarda yetishtirish va qayta ishlash borasida sohadagi ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli zamonaviy farmatsevtika mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi vazifalarni bajarish maqsad qilingan. Demak, tomonlarda farmatsevtika sohasi bo'yicha ham samarali hamkorlik qilish imkoniyati katta.

O'zbekiston va Tojikiston mintaqada xomashyo va qayta ishlanmagan qishloq xo'jaligi

Italiya – Markaziy Osiyo (C5) + Ozarbayjon biznes forumi:

23-24-mart kunlari Toshkent shahri xalqaro ahamiyatga ega "Italiya – Markaziy Osiyo (C5) + Ozarbayjon" biznes forumiga mezbonlik qildi. "Barqaror agroekotizimlar uchun innovatsiyalar, regenerativ qishloq xo'jaligi va raqamlashtirish" mavzusiga bag'ishlangan ushbu nufuzli tadbir qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tajribalarni namoyish qilish bilan birga mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, Yevropa hamda Markaziy Osiyo o'rtasida strategik sheriklikni rivojlantirish uchun muhim platforma vazifasini o'tadi.

Tadbirda O'zbekiston, Italiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston delegatsiyalari, vazirlik va idoralari rahbarlari, xalqaro moliya institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, universitetlar, eksport-import agentliklari, investorlar va biznes doiralari vakillari ishtirok etdi. Forumda turli mamlakatlar vakillari mahsulot va texnologiyalarni muhokama qilish bilan birga global hamda mintaqaviy muammolarga ham

javob izlash uchun fikr va g'oya almashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bugun iqlim o'zgarishi, suv taqchilligi, tuproq unumdorligining pasayishi kabi global tahdidlar barqaror va strategik fikrlashni talab etadi. Bunday vaziyatda barqaror agroekotizimlarni shakllantirish, resurs tejamon tizimlarni rivojlantirish hamda regenerativ qishloq xo'jaligi tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tajriba almashish qishloq xo'jaligini yuksaltirishda g'oyat muhim.

Forum ochilishida qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov "Italiya bilan hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon uchun qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat sohalarida yangi istiqbol o'chadi. Italiya ilg'or texnologiyalari, yuqori sifat standartlari va samarali ishlab chiqarish tizimlari bilan tanilgan. Ushbu tajribalarni joriy etish orqali biz hosildorlikni oshirish, hosildan keyingi yo'qotishlarni kamaytirish, mahsulot sifatini va qo'shimcha qiymatni yaxshilash imkoniga ega bo'lamiz", deya ta'kidladi.

Tadbirding muhim jihatlaridan biri qishloq xo'jaligini investitsiyaviy jozibador yo'nalishga

aylantirish, qayta ishlaboluvchi rivojlantirish, eksport zanjirlarini mustahkamlash va qo'shma korxonalarni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilinganidir. Shu bois, yig'ilishda agrar tarmoqqa to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrologistika, saqlash, qayta ishlash va eksport infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa Italiya va mintaqa davlatlari o'rtasida uzoq muddatli, o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Forum davomida ishtirokchilar uchun Toshkent viloyatidagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat korxonalariga tashrif ham uyushtirildi. "Agro-Tech" klasteri, "Botanik.uz" ko'chatxonasi va Italiya bilan hamkorlikdagi quyonchilik klasteri faoliyatini bilan tanishish orqali mehmonlar O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va klaster tizimidagi amaliy ishlar bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Yana bir dolzarb jihati — inson kapitalini rivojlantirish. Tadbirda yosh mutaxassislar,

tadqiqotchilari va professorlar jalb qilindi. Bu esa agrar yo'nalishda kadrlar tayyorlash va kelajak mutaxassislarini shakllantirishda muhim. Tadbir davomida e'lon qilingan g'oya va kelishuvlar nafaqat iqtisodiy natija berishi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Chunki barqarorlik iqtisodiy tizim, ijtimoiy adolat, tabiat bilan uyg'unlik va kelajak avlod uchun yaxshi muhit yaratishni qamrab oladi.

Forum nafaqat iqtisodiy va ilmiy hamkorlik uchun maydon, balki global iqlim o'zgarishi va suv taqchilligi sharoitida qishloq xo'jaligi sohasida barqarorlikni ta'minlash uchun strategik nuqta bo'lib xizmat qildi. Mazkur tadbir orqali ishtirokchilar qishloq joylarda bandlekni ta'minlash, eksport salohiyatini kuchaytirish, texnologiyalar va bilimlar almashinuvi orqali barqaror agro-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilab oldi.

"Italiya — Markaziy Osiyo (C5) + Ozarbayjon" biznes forumi qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiya, investitsiya, fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydigan, yangi sheriklik aloqalarini shakllantiradigan, barqaror agrotarmoq sari yo'naltirilgan strategik



platforma sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Unda boshlangan tashabbus va erishilgan kelishuvlar agrar tarmoqni transformatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq

mahsulotlarining yirik eksportchilari. Shuning uchun ularni qayta ishlash uchun qo'shma ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish ham o'zaro hamkorlikning istiqbolli yo'nalishidir. Ikki mamlakat ulkan Yevrosiyo hududida mevasabzavotlarning juda ko'p turini yetishtirish va ularni qayta ishlanmagan, quriltigan va qayta ishlangan holda eksport qilish hajmi bo'yicha yetakchi mavqega ega.

Meva-sabzavotlarni qayta ishlash, jumladan, sanoat usulida quritish sohasida qo'shma korxonalar tashkil etish arzon, sifatli va xorijiy bozorlarda xaridorgir tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini katta hajmlarda ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Bu mahsulotlarni MDH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlarga eksport qilish mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston — Tojikiston investitsiya kompaniyasining moliyaviy imkoniyatlaridan qo'shma ixtisoslashgan tarmoqlarni yaratish uchun foydalanish mumkin. Qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar hajmining oshishi tannarxning pasayishi va MDH mamlakatlari bozoriga ham, Xitoy bozoriga ham eksport qilish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbek va tojik dehqonlari asrlar davomida saqyallangan yuksak ziroatchilik sivilizatsiyasini yaratgan. Bu ikki makonda qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchilik an'analarini asosida shakllangan va rivoj topgan. Ana shu ulkan tajribaga tayangan holda har ikki davlat hududida yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya, yer-suv resurslaridan tejamonlik bilan foydalanish, agrar tarmoqqa raqamli texnologiyalar, innovatsiya yutuqlari va sun'iy intellektni joriy etish sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish imkoniyatlari mavjud.

Tojikiston o'zida ishlab chiqarilmaydigan tayyor mahsulotlar, xususan, avtomobil, maishiy texnika, ayniqsa, kir yuvish mashinalari, konditsioner, katta hajmli muzlatkich, ba'zi oziq-ovqat, to'qimachilik va kimyo mahsulotlari eksportini oshirish uchun istiqbolli bozordir. Qo'shni davlat bilan umumiy chegaraviy va rivojlangan transport infratuzilmasi mavjudligi mahsulotlarni tashish xarajati pasayishiga asos bo'ladi.

Tojikistonda gidroenergetika inshootlarini birgalikda qurish va ishlatish hamda transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yo'l bilan nisbatan arzon elektr energiyasi ishlab chiqarish va suv resurslaridan samarali foydalanish mumkin.

Shuningdek, oziq-ovqat sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida katta miqdordagi eksport bozori mahsulotlar ishlab chiqarish va uni uchinchi davlatlar, jumladan, Afg'onistonga eksport qilish imkonini mavjud. Buning uchun Tojikiston bilan chegaradosh hududlarda agrologistika markazlari va omborxonalarni birgalikda tashkil etish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston va Tojikiston hududida ko'p asrlar davomida barpo etilgan noyob qadimgi yodgorliklar mavjud. Ikki xalq o'rtasida bu osori atiqalarni, ayniqsa, islom madaniyatiga mansub majmualarni ziyorat qilishga intilish katta. Shu bois, mazkur sohada hamkorlikni kengaytirish, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ayniqsa, shunday yodgorliklarni joylashgan hududlarga to'g'ridan to'g'ri samolyot va avtobus qatnovini yo'lga qo'yish iqtisodiy barqarorlik bilan birga o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnihilik ruhini mustahkamlash, bordi-keldilarni yanada yaxshilashga zamin yaratadi.

Umuman olganda, o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, uning hajmini 2 milliard dollarga yetkazish ikki mamlakat iqtisodiy o'sishi, xalqlarimiz farovonlashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat tashrif va unda qabul qilinadigan kelishuvlar esa ikki davlat va xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada kuchaytirish, itifoqchilik maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

etish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim qadam bo'ladi.
Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



ZAMONAVIY MAZMUN BILAN YO'G'RILGAN QADIMIY BAYRAM



21-mart kuni "Yangi O'zbekiston" bog'ida o'tkazilgan Navro'z umumxalq bayrami nafaqat bahorning kirib kelishini, balki millat tarixi va kelajagi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor namoyon etdi. Prezidentimiz ishtirok etgan ushbu tantanal marosimda yangragan g'oyalari inson qadri va birdamlik kabi ming yillik an'analimizdan suv ichadi.



Anvarjon ALIYEV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, O'zbekiston
Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

Bugungi global beqarorlik sharoitida jamiyatni birlashtiruvchi, insonni ulug'lovchi qadriyatlarga ehtiyoj ortib

sifatida nishonlangan. Bu g'oya bugungi Yangi O'zbekiston konsepsiyasi bilan uyg'un: mehnat va islohotlar taraqqiyot garovi.

Temuriylar davrida Navro'z davlat miqyosidagi eng ulug' bayramlardan biri bo'lgan. Alisher Navoiyning "Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'lusun Navro'z" misralari bu ayyomning ma'naviy qiymatini yuksak ifoda etadi.

Asrlar davomida Navro'z xalq turmush tarziga moslashib, turli udumlar bilan boyildi. "Qozon to'la" an'anasi, sumalari va halim tayyorlab, bolalarning xonadonma-xonadon yurib qo'shiq aytishi — bularning barchasi xalqning baraka va farovonlikka bo'lgan ishonchini ifodalaydi. "Ulus kuni qozon to'lsa, yil bo'yi sut mo'l bo'lar" degan xalq naqli esa iqtisodiy farovonlikning ramziy ifodasidir.

Biroq tarixda sinovli davrlar ham bo'lgan. XX asrning 80-yillarida Navro'z asossiz ravishda man etildi. Lekin mustaqillikdan so'ng bu qadriyat qayta tiklanib, bugun umumxalq bayrami

Jumladan, yangi ish o'rnlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda, zamonaviy korxonalar, kommunikatsiya tarmoqlari va infratuzilma obyektlari barpo etilib, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va sport sohaslarida yangi bosqich boshlanmoqda.

Mazkur jarayonlarni bahorga qiyoslasak, mamlakat hayotidagi bugungi islohotlar — muzlagan tuproq bag'rini yorib chiqqan ilk mayсалar kabi. Ular hali nozik, ammo kelajakda ulkan bog'larga aylanish qudratini o'zida mujassam etgan.

Nutqda qishloq xo'jaligi sohasiga ham yuksak baho berildi. Mirishkor dehqon va fermerlar mehnati "xalq dasturxonining barakasi" sifatida e'tirof etildi. Bu iqtisodiy barqarorlikning eng asosiy ustunlaridan biri ekanining tan olinishidir.

Yoshlar masalasi esa nutqning markaziy nuqtalaridan biri bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugungi O'zbekiston yoshlari ta'lim, ilm-fan, axborot texnologiyalari, biznes va sport sohaslarida yangi qahramonlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular Uchinchi Renessans bunyodkorlari sifatida tarix sahnasiga chiqmoqda. Bu ta'rif yosh avlodga berilgan ishonch va mas'uliyatning yuksak mezonidir.

Mahalla institutiga berilgan e'tibor ham jamiyat barqarorligining muhim omili. Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili doirasidagi ishlar faqat ma'muriy islohot emas, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan chuqur strategiyadir.

Bugun 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir Vatan ostida Navro'zni nishonlayotgani esa uning azaliy missiyasini — insonlarni birlashtirish g'oyasini yana bir bor tasdiqlaydi. Navro'z o'timshidan kelgan oddiy an'ana emas. U millat xotirasi, sivilizatsiya merosi va kelajakka yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy kompassdir.

Bugun yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida ekan, uning ildizlari aynan shu qadimiy qadriyatlarga borib taqaladi. Tarix dalolat beradiki, tabiat bilan uyg'un, mehnatga suyangan, birdamlikka intilgan jamiyat har doim yuksalgan.

Shu bois, har birimiz quyidagi haqiqatni anglashimiz zarur. Navro'zni nishonlash faqat bayram qilish emas, balki ajdodlar vasiyatiga sadoqat, kelajak oldidagi mas'uliyatdir. Ko'chat ekish, mahallani obod qilish, yoshlarga bilim berish, bir-birimizga mehr ko'rsatish kabi amaliy ishlar orqali biz Navro'z ruhini davom ettiramiz!

sifatida keng nishonlanmoqda. Bu millat xotirasi va ruhiyatini hech qanday mafkura yo'q qila olmasligining yorqin dalilidir.

Davlatimiz rahbari nutqida ilgari surilgan "Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" degan g'oya ana shu tarixiy merosning zamonaviy talqinidir. Yangi ish o'rnlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, mahalla tizimini mustahkamlash — bularning barchasi qadimiy bayramning zamonaviy mazmun bilan boyishi demakdir.

Prezidentimiz nutqida keltirilgan fakt va raqamlar yangi O'zbekistondagi o'zgarishlar ko'lamini ham aks ettiradi.



bormoqda. Navro'z ana shunday abadiy manbalardan biri sifatida nafaqat madaniy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etmoqda.

Navro'zning ildizlari ibtidoiy jamiyat davriga — insonning tabiat bilan uyg'un yashagan, ko'klamgi mehnat mavsumini marosimlar bilan kutib olgan zamonlarga borib taqaladi. Olimlar fikricha, bu bayram Xitoydan o'rtayer dengizgacha bo'lgan hududlarda yashagan xalqlarni birlashtirgan umuminsoniy ayyom bo'lgan. Urushlar to'xtatilib, gina-kuduratlar kechirilgani esa Navro'zning tinchlikparvar mohiyatini ko'rsatadi.

Eng qadimgi manbalardan biri "Avesto"da bahor qaytishi yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi sifatida talqin etiladi. Bu g'oya bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: ezigulik va yangilanish har qanday taraqqiyotning bosh sharti. Arxeologik topilmalar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Adabiy manbalarda esa bayram yanada rang-barang talqin qilinadi. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Umar Xayyomning "Navro'zнома" asarlari va Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"ida bu ayyomning mohiyati va xalq hayotidagi o'ri chuqur yoritilgan. Abu Bakr Narshahiy Navro'z marosimlari uch ming yillik tarixga ega ekanini qayd etadi.

Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sidagi Jamshid haqidagi rivoyat esa Navro'zni bunyodkorlik va taraqqiyot ramzi sifatida talqin qiladi. Inson mehnati samara bergan, jamiyat gullab-yashagan kun aynan Navro'z



10 MILLION DAN ZIYOD OVOZ, 2000 GA YAQIN G'OLIB LOYIHA

“TASHABBUSLI BUDJET”NING BIRINCHI MAVSUMI NATIJALARI E'LON QILINDI

“Tashabbusli budget”ning joriy yil birinchi mavsumi g'oliblari e'lon qilinishi katta bayramga aylanib ketdi. Odatdagidek g'oliblar ro'yxati 21-mart — Navro'z umumxalq bayrami kuni ma'lum qilindi va natijalar ko'plab yurtdoshlarimizga qo'shaloq tantana shukuhini ulashdi.



Loyiha yurtdoshlarimizni yana bir bor mustarak maqsad yo'lida birlashtirdi. Salkam ikki oy davom etgan jarayonning har biri qizg'in kechdi. Dastlab 1-20-fevral kunlari loyiha kiritish bosqichi bo'lib o'tdi. Shundan so'ng 21-fevraldan 7-martga qadar saralash, 8-10-mart kunlari esa targ'ibot bosqichi o'tkazildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, “Tashabbusli budget”ning bu yilgi birinchi mavsumida fuqarolardan jami 21 ming 49 ta loyiha kelib tushgan. Shundan 17 ming 390 tasi ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan.

Tadbirning asosiy va kutilgan ovoz berish bosqichi 11-martda boshlanib, 20-mart kuni yakunlandi. Odatdagidek yurtdoshlarimiz dastlabki daqiqalardayoq maxsus internet platformalari orqali loyihalar uchun ovoz berishga kirishdi. Bu jarayon ovoz berish bosqichining so'nggi daqiqalargacha faollik bilan davom etdi. Ma'lumotlarga ko'ra, jarayonda mamlakatimiz bo'yab 10 million 284 mingta ovoz berilib, yakuniy natijalar bo'yicha jami 1996 ta loyiha g'olib deb topildi.

Bu loyihalarni amalga oshirish uchun davlat budjetidan 3 trillion 5 milliard 827 million so'mdan ortiq mablag' ajratilishi rejalashtirilgan, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lim boshlig'i Azimjon Hasanov. — Joriy mavsum tahlillariga ko'ra, yo'nalishlar kesimida eng ko'p ichki yo'llarni ta'mirlash

(868 ta), maktablarni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash (566 ta) hamda sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini ta'mirlash (163 ta) bo'yicha loyihalar g'olib deb topildi. Huddudlar bo'yicha esa Ko'kdala tumanidan qo'yilgan loyiha eng ko'p — 13 ming 386 ta ovoz to'plagan. Eng kam — 58 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan loyiha esa Mo'ynoq tumaniga to'g'ri kelib, ko'chalarga yoritqichlar o'rnatish tashabbusi edi. Bu hali to'liq yakuniy raqamlar emas. Shu yil 21-mart kunlari qo'shimcha g'oliblarni e'lon qilish bosqichi ham bo'lib o'tadi. Gap shundaki, joriy mavsumdan qator yangiliklar kiritilgan. Endi yuqori ovoz to'plagan, biroq g'olib bo'lmagan loyihalarni deputatlar tashabbusi asosida qo'shimcha ravishda g'olib deb e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tegishli okrugdagi g'olib bo'la olmagun bitadun loyihani qo'shimcha ravishda g'olib deb e'lon qilishi mumkin. Shu jarayon tufayli loyihada qo'shimcha g'oliblarni e'lon qilish muddati belgilangan.

“Tashabbusli budget” xalqimiz orasida umummilliy harakatga aylangan holda har gal loyihani yanada takomillashtirish, yangiliklar va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha muayyan ishlar qilinayapti. Bu yangiliklar joriy yilgi birinchi mavsumda ham ko'zga tashlandi. Masalan, bir loyiha uchun yuqori qiymat 1 milliard 648 million so'mgacha, jibozlash loyihalari esa 824 million so'mgacha oshirildi.

Muhim yangiliklardan yana biri tashabbusli loyihalarni aholi va davlat o'rtasida sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmining yo'lga qo'yilgani bo'ldi. Ya'ni qiymatining 50 foizini aholi moliyalashtirgan loyihalar avtomatik ravishda g'olib deb topilib, qolgan qismi davlat tomonidan moliyalashtirilishi belgilangan edi. Bu mutlaqo' ixtiyoriy amaliyot bo'lgani holda har bir mahallaga mavsumda faqat bitta loyihani sheriklik asosida amalga oshirishga ruxsat berildi. Loyiha qiymatining 50 foiziga teng mablag'ni to'play olmagun sheriklik loyihalari esa chetlashtirilmay, qayta imkoniyat

sifatida an'anaviy ovoz berish bosqichiga o'tkazilishi aytilgan.

Bu yo'nalishda ham loyihalarni ilgari surgan talabgorlar o'z bo'lmasi. Ko'rsatilgan talablarni bajargan sheriklik loyihalari avtomatik ravishda g'olib deb topilib, ularning ro'yxati “Tashabbusli budget”ning ovoz berish bosqichiga qadar birin-ketin e'lon qilib borildi. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani “Sharh” MFY Yusuf Hamadoniy ko'chasi ichki yo'llarini asfaltlash hamda Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani “Eski Anhor” MFY va Oqdaryo ko'chalarini asfaltlash bo'yicha sheriklik loyihalari ilk g'oliblardan bo'ldi. Mazkur loyihalar



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

qiymatining 50 foizi 10-martga qadar fuqarolar tomonidan moliyalashtirilib, ovoz berish jarayonisiz, ya'ni sheriklik mexanizmi asosida “Ochiq budget” portalida muddatidan oldin avtomatik ravishda g'olib deb topildi.

“Tashabbusli budget”ning joriy yil birinchi mavsumida fuqarolar tomonidan sheriklik asosida 1400 dan ortiq loyiha taklif etildi, — deydi Azimjon Hasanov. — Belgilangan mezonlarga muvofiq deb topilgan 221 loyiha saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o'tdi. Shundan so'ng ushbu loyihalar uchun har bir mahalla bo'yicha mablag'larni jamlash maqsadida tranzit hisobraqamlar ochildi va rekvizitlari tashabbuskor fuqarolarga SMS xabaromora orqali yetkazildi. “Ochiq budget” portalida sheriklik loyihalari bo'yicha biriktirilgan tranzit hisobraqamlar bilan tanishish hamda mazkur hisobraqamlarga kelib tushayotgan mablag'ni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati ham yaratildi. Ana shu jarayondan o'tgan 16 ta sheriklik loyihasi birinchi mavsumda g'olib deb topildi. Ularni moliyalashtirish uchun fuqarolar tomonidan jami 3,3 milliard so'm yig'ildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, sheriklik loyihalarning 4 tasi tanaffusga tushgan mahallalarga tegishli.

Gap shundaki, joriy mavsumda qo'llangan yangi tartiblardan yana biri “Tashabbusli budget” doirasida ketma-ket ikki mavsumda g'olib bo'lgan mahallalar uchun navbatdagi ikki mavsumda loyiha kiritishni cheklash, ya'ni tanaffus berish amaliyotining joriy etilgani bo'ldi. Shunga ko'ra, 2026-yil birinchi mavsumda loyiha kiritish imkoniyati cheklanadigan mahallalar ro'yxati shakllantirilib, tegishli platformaga joylashtirildi. Ammo keyinroq Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan istisno tarzida joriy mavsumda mahallalari soni 15 va undan kam bo'lgan tuman (shahar)larga tanaffus berish amaliyoti qo'llanmasligi ma'lum qilindi. Tartibga ko'ra, tanaffusga tushgan mahallalar loyiha kiritma olmaydi, biroq ovoz berish jarayonida to'liq ishtirok etishi mumkin. Ushbu mahallalar aholisi o'ziga yaqin va qo'shni mahallalarda ilgari surilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlab, ular uchun ovoz to'plash jarayonida qatnashishi uchun hech qanday cheklov o'rnatilmagan.

Shuningdek, ayrim hududlarda ishchi komissiyalar tomonidan loyihalar asossiz rad etilgani yoki mezonlarga zid loyihalar o'tkazilgani sababli ovoz berish bosqichi vaqtinchalik cheklangan holatlar ham kuzatildi. Bunday vaziyatlarda tekzor choralar ko'rilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligining talabi bilan ishchi komissiyalar tomonidan xato va kamchiliklar bartaraf etildi hamda loyihalar belgilangan mezonlar asosida qayta ko'rib chiqildi. Shundan so'ng cheklov o'rnatilgan hududlarda loyihalarga ovoz berish bosqichi birin-ketin to'liq tiklandi.

Umuman, yurtdoshlarimizning “Tashabbusli budget”ga qiziqishi ortgani sari uni xalqqa yanada yaqinlashtirish, imkoniyatlarni oshirish choralarini ko'riyapti. Shaffoflik, ochiqlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Garchi doimiy chora-tadbirlar sabab loyihada noqonuniy, zo'rma-zo'raki, majburiy ovoz to'plash jarayoni keskin qisqartirib borayotgan bo'lsa-da, bu boradagi nazorat hamon qat'iy. Joriy mavsumda ham shunday holatlar kuzatilsa, darhol murojaat yo'llash uchun qisqa raqamli ishonch telefonlari ishga tushiriladi. Majburiy ovoz to'plangan loyihalar esa ovoz berish bosqichidan chetlatilishi bo'yicha oqohlantiriladi.

Qolaversa, bu mavsumda ilk bor “Ochiq budget” portalida sun'iy intellekt asosida ishlovchi “AI Yordamchi” chat boti ishga tushirildi. Yangi texnologiya fuqarolarning davlat budjeti va tashabbusli loyihalarni oshirish jarayoni yuzasidan qulay hamda tekzor axborot olishiga mo'ljallangan bo'lib, “Tashabbusli budget”ning birinchi mavsumida undan minglab fuqaro foydalangani kuzatildi.

O'tgan yili mahallasidagi maktab binosini ta'mirlatish tashabbusi bilan ishtirok etgan bir tanishim loyihasi g'olib bo'lganini quvonib aytgandi. Yaqinda o'sha maktab binosini kapital ta'mirlanib, bolalar qishni issiqsina binoda o'tkazgani, zamonaviy maktabda ta'lim olayotganidan xursand bo'lib gapirdi. Endi navbat mahallasidagi yo'llarni asfaltlashga yetgani, buning uchun ham loyihada faol ishtirok etayotganini aytishni ham unutmadi.

Bugun “Tashabbusli budget”ning xalqimiz orasida ommalashib, umummilliy harakatga aylangan faqat loyihalarni odamlarning o'zi ilgari surayotganida emas, balki natijasi ham amalda ko'rinayotgani bilan bog'liq. Masalan, loyihaning o'tgan yilgi ikkinchi mavsumida g'olib bo'lgan loyihalar bo'yicha hududlarda ishlar qizib in ketaypti. Aksariyati muvaffaqiyatli yakunlab, aholiga tantanal topshirildi. Xususan, Guliston tumanidagi 4-maktabda zamonaviy sport zali, Yangiheyot tumanidagi 51-DMTTda yozgi bolalar maydonchasi barpo etildi. Toyloq tumanidagi Bog'izog'on hamda Navzandak mahallalaridagi ichki yo'llar asfaltlandi. Zomin tumanidagi Paxtakor mahallasida ham ichki yo'llarni asfaltlash ishlari boshlangan.

Har bir loyihaning sifati bajarilishi ham alohida nazoratda. Mutasaddilarning tushuntirishicha, Oliy Majlis Senati kengashining tegishli qaroriga ko'ra, agar g'olib loyiha foydalanishga topshirilishda tashabbuskor fuqaro va mahalla raisi bajarilgan ishlaridan qanoatlanmasa, obyekt foydalanishga qabul qilinmaydi.

Qolaversa, tashabbuskor loyiha ijrosini kuzatib borishi, kamchilik yoki qonun buzilishi holatini aniqlansa, “Ochiq budget” portali orqali “favqulodda xabar” qoldirishi mumkin. Agar haqiqatan qonun buzilishi holati aniqlansa, belgilangan tartibda chora ko'riladi. Chunki “Tashabbusli budget” doirasida ajratilayotgan mablag' davlat budjeti hisobidan qoplanadi va jarayon tegishli organlar tomonidan nazorat qilinadi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Uy-muzeylarda

She'riyatning
qutlug' qadamjosiDo'rmonda Abdulla Oripov uy-muzeyi
ochilishidan lirik lavhalar

Ulamolarimiz moddiy va ma'naviy ne'mat-yaxshiliklarning ziyoda bo'lishi, unib-o'sishi, barqaror va davomli bo'lishini baraka deydi. Baraka tanaga tushsa, uni quvvatli qilib, ko'p narsaga imkoniyati yetishiga sabab bo'ladi. Baraka farzandlarga tushsa, ularning solih, axloqli bo'lishiga ko'mak beradi. Baraka vaqtga tushsa, uni kengaytiradi, inson o'sha vaqt ichida ko'p ishlarni qilishga ulguradi. Bir odam 60-70-yillik umri davomida yuz yilda ham qilishga ulgurolmaydigan ishlarni bajarishi uning vaqtiga baraka berilganidir.

Abdulla Oripov 75 yil umr ko'rdi. Ammo o'zidan son-sanoqsiz she'rilar, ko'plab kitoblar, tarjimalar, subhatlar, qaydlar, xotiralar qoldirdi. U zotning yozib qo'ygan asarlari hozir ham nashr etilishda davom etmoqda. Bu bir insonning umriga baraka berilganining yorqin ko'rinishi.

“Do'rmon” ijodiy hududida, shoir istiqomat etgan xonadon muqaddas Ramazon hayiti hamda Navro'z ayomi, qolaversa, 21-mart — shoirming tavallud sanasi arafasida Abdulla Oripov uy-muzeyining ochilishida ham o'ziga xos ramziy ma'no mujassam. Tadbir davomida shoir Eshqobul Shukur topib aytdi: “Shoir o'zi ulug' kunda tug'ildi, uy-muzeyining ochilishi ham shu muborak sanaga to'g'ri keldi. Barakali odam degani shu bo'lsa kerak-da!”

O'zbek adabiyotini Abdulla Oripov ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Betakror, falsafiy, tabiiy kechinmalarga yo'g'rilgan, qalb prizmasidan o'tgan, teran obrazli, mushohadalariga boy, ohangi, ifoda usuli, hayot hodisalarining yangicha talqini bilan o'z adabiy maktabini yaratdi. Shoir Usmon Azim aytmog'chi, adabiyotga yolg'on aralashmagan so'zlar bilan kirib keldi. She'riyat darg'asining yorqin shaxsiyatini bir faoliyat kesimida qamrab olish mumkin emas. Shu ma'noda, mazkur muzey adabiyotimiz, Abdulla Oripov she'riyatining qutlug' qadamjosi bo'lishi shubhasiz.

Chindan ham muzey Abdulla Oripov yashagan muhit ruhini saqlab qolgan bilan ahamiyatga molik. Shoir asarlarining asl qo'lyozmalari mavjud ijodxonada, devorlardagi tarixiy suratlar, yuzlab kitoblarni bag'rida saqlayotgan mahobatli kutubxonasi, ijodkor ziyolilar bilan dildan suhbat uchun majlislar onasi, yaqin yillarga tegishli eksponatlar, mo'jaz foye g'oyat fayzli va shinam. Davlatimiz madhiyasi yaratilgan alohida ijodxonada uy-muzeyga yanada ko'rk, salobat bag'ishlaydi. Yurtimiz madhiyasi aynan shu xonada dunyoga kelgani qalblarni hayajonga soladi.

Muazzam va dilbar

— Otam Do'rmonni yaxshi ko'rardi, biror joyga ketsa, “Do'rmon havosini sog'indim”, deb tez qaytib kelardi. Bundan oldin Kibriyo Qahhorovdan sotib olingan hovlida yashaganamiz. Keyinchalik, otam Yozuvchilar uyushmasi raisi bo'lgach, oldingizga ko'p odamlar tashrif buyuradi, kattaroq joyga ko'chib o'tishingiz kerak deb shu uyni berishgan. Shundan so'ng bu hovli xalq hovlisiga aylandi: ostona hatlab istalgan kishi kirib kelar, shoirona qilib aytganda, otamning tafakkur bulog'idan cho'michiga to'ldirib ketardi. Qoraqalpoqlik muxlislar otamni boshqacha yaxshi ko'rardi, elikqal'aliklar tez-tez tashrif buyurar, Neko'z — Nukus-da deb hazillashib, o'zlarini shoiriga yaqin olardi. Bu hovlida otamning uchta o'tovi bor edi, har yili ikki marta qoraqalpoq muxlislar kelib, yangilab ketardi. Uy-muzeydagi ko'plab jihozlar, stol-stullar yoki shoir surati solingan gilamlar hunarmand muxlisleri tomonidan

taqdim etilgan, — deya eslaydi Abdulla Oripovning qizi Shoira Oripova.

Ikki qavatli uyni tomosha qilar ekansiz, shoir hamma qatori o'zini va ayni paytda naqadar ulug'vor hayot kechirganiga yana bir bor iqrar bo'lasiz. Bu yerda saqlanayotgan har bir ashyoga o'z vaqtida shoirming qo'li tekkan, uning nigohi tushgan. Buni bilishingiz hamono eksponatlardagi mohiyat teranroq mazmun kasb eta boshlaydi, ijodkorga doir iliq xotiralar sari yetaklaydi.



“UCHRASHUV VA TADBIRLARDI KO'PINCHA OTAM BILAN BIRGA ISHTIROK ETARDIM. OTAM BUTUN BORLIG'I BILAN XALQNIKI EDI. UCHRASHUVLARDI, SAFARLARDI UNI ODAMLAR O'RAB OLARDI.”

“Abdulla aka oilada adabiy tilga, o'zbek tiliga juda e'tiborli edi. Farzandlarimiz Toshkentning qoq markazida tug'ilib o'sgan bo'lsa-da, “ada” emas, balki “ota” deb chaqirardi. To'ng'ich nabirimiz Shohruh bobosini “buva” deb tili chiqdi. Qarasaki, hamma “ota” deydi. Keyinchalik u bobosiga “ota-buva” deb murojaat qila boshladi. Abdulla aka hazillashib, “Nevaram, o'zingni qiynab nima qilasan, “ajdod” deb qo'yaqol”, degandi, — deya xotirlaydi shoirming rafiqasi Hanifa Mustafoyeva. — Madhiyaning dunyoga kelishida ikki buyuk kompozitor va shoirming tong otuncha ter to'kib, qilgan mehnatlariga guvoh bo'lganman. Mutal aka menga “Kelinjon! Agar mana shu musiqam tanlovdan o'tsa, o'lsam ham armoniy yo'q edi. Bilasizmi, menga nimasi nash' qiladi? Hatto dushmanim ham qo'lini ko'ksiga qo'yib, o'rnidan turadi-da!” deb miriqib kulgani hamon qulog'im ostida jaranglab turadi.

Madhiya uchun e'lon qilingan tanlovga Abdulla aka “Qo'ng'irtovliq” taxallusi bilan qatnashgan. Saralov uch bosqichdan iborat bo'lgan va u deyarli ikki yil davom etdi. Har bir bosqichda Abdulla akaning she'rlari yuqori

o'rinlarni egalladi. Tinimsiz mehnat natijasida madhiya uchun ikki she'r yozildi va oxiri “Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt najot” degan satrlar bilan boshlanadigan tanlovga taqdim etildi. Mutal Burhonov har kuni uyimizga kelib, pianinoda musiqani chalib ko'rar va madhiyani farzandlarim bilan kuylab, har bir so'zi musiqaga mos tushayotgan yoki yo'qligini tekshirardi. Madhiyaning matni ham juda ko'p o'zgartirilgan, shu vaqtgacha bir necha variantini muzeylarga berganman, uydana yana 50-60 nusxasi saqlanib qolgan. Ikkinchi qavatdagi pianinoni ko'rdingizmi? Yonida eski yozuv mashinkasi ham bor. O'sha pianinoda madhiya musiqasi yaratilgan, yozuv mashinkasida esa men Abdulla akaning she'rlarini terib chiqardim”.

“Mahallada duv-duv gap”

“Opalarimning aytishicha, har yangi yilda madhiyaning yangrashini otam intizorlik bilan kutgan. Otamga qo'shtirmoq ichidagi “do'stlari

bo'ldi. Shunda meni bittagina yangangiz himoya qildi, doimo birga bo'ldi va meni haligi eng qayg'uli va og'ir xulosalardan qaytardi. Balkim jonimga qasd qilishim mumkin edi. Hozir ham shunday daqiqalar bo'ladi. Buni men aql bilan yengaman, harakat qilaman. Shuning uchun menga qancha og'ir bo'lgan bo'lsa, yangangizga undan ham og'ir bo'ldi. Mana shu xulosamni o'ziyoq ko'p narsani bildirsa kerak”, deb javob bergan edi.

Eng kichik farzand bo'lganim uchun otamning mehri qaymog'ini taqdimman, desam mubolag'a bo'lmaydi. Uchrashuv va tadbirlarda ko'pincha otam bilan birga ishtirok etardim. Otam butun borlig'i bilan xalqniqi edi. Uchrashuvlarda, safarlarda uni odamlar o'rab olardi. Men chetda qolib ketaverdim. Esimda, Namangan viloyati Pop tumaniga borganimizda odamlar o'rab olib, dastxat oldi. Shoirming qizi ekanimni bilib qolib, mendan ham dastxat so'ragan. Rosa xijolat bo'lganman. Uyimiz doim mehmonlar bilan gavjum bo'lar edi. Oilaviy bayramlarda, yangi yil kechasi ham dasturxon tuzab, butun oila jam bo'lib o'tirganimizda shogirdlari, muxlislari kirib kelardi. Tongotar she'rxonlik, adabiy guruh bo'lar va buni biz tabiiy hol deb qabul qilardik. Abdulla Oripov bizning otamiz va xalqning shoiri edi. Shuning uchun otam bilan odamlar istalgan payt gaplasha olardi deb o'ylar edim. U shu qadar taniqli ediki, keyinchalik el orasida unga doir turli kulgili mish-mishlar, to'qib chiqarilgan voqealar tarqalib ketdi.

Bir kuni uyushmaga bir momo keldi. Suhbat orasida to'satdan: — Abdulla Oripovning “Yuzma-yuz” kitobini o'qiganmisizlar? — deb so'rab qoldi. Hamkasblarim hazil-chin aralash: — Mana, shoirmizning qizi bo'ladi, — dedi. Momo menga sinchiklab qarab turdi-da, “Rostdan ham qizimisiz?” deb hayratlandi. Tasdiqlash ma'nosida boshimni silkittim. Shunda u ayol xuddi hamma narsani aniq bilgandek gap boshlab yubordi:



— Otangiz bir arman qizini qattiq sevgan. Otasi bermagan. Shuning uchun “Nechun tim qoradur arman ko'zlari”, deb amonli she'rilar yozgan. “Birinchii muhabbatim”ni shu qizga bag'ishlagan. Keyin bir o'zbek qizini topib, baxtli bo'lib ketgan...

U shunchalik ishonch bilan gapirardiki, go'yo o'sha voqealar tepasida o'zi turganday. Men esa shunchaki jilmayib qo'ydim. Aslida, aytgan she'rlari “Birinchii muhabbatim” she'ridan ancha keyin yozilgan. Armanistonga safar ham turmush qurganlaridan so'ng bo'lgan. Odamlar otam haqida turli “xotira”lar to'qiydi. Shunday paytlar otamning satrlari yodimga

tushadi: “Inson bolalari baribir sodda”. Ba'zilar shoirni turli afsonalar orqali sevishni istaydi. Kim biladi, balki bu ham muhabbatning bir ko'rinishidir”.

Ruhiyat ranglari
inkishof

Abdulla Oripov shoir sifatida she'riyat ixlosmandlarining ko'z o'ngida shakllandi. 1965-yilda yosh shoirming birinchi she'riy to'plami — “Mitti yulduz” chop etilganda filologiya fanlari doktori Salohiddin Mamajonov quyidagilarni qayd etgan: “Shoir voqelikni butun murakkabligi, ichki ziddiyatlari orqali ko'radi, undagi go'zallik va xunuk tonomlar, qiyinchiliklar va mushkulotlarni idrok etib, oldinga surayotgan g'oyasini ana shu mushkulotlar ichidan olib o'tib ifodalaydi va uning ishonarli chiqishiga erishadi”.

Ibrohim G'afurov shoirming ikkinchi to'plami — “Ko'zlarim yo'lingda” haqidagi taqrizida yosh shoir she'rlarining falsafiyli, lirik qahramonning dard va intilishlari, zamon haqida, kelajak haqidagi o'ylarining aks etishi to'g'risida so'z yuritadi.

Taniqli adib Doniyor Begimqulov aytdiki, “Shoirming butun ijodiy inson zakosi, uning sir-sinoati, anglab bo'lmaz sehr-u jodusi, yuksakligi va tubanligi qarshisida lol bo'lgan qalbnig hayratidek taassurot qoldiradi”.

“Otamda ishdan keldim, dam olaman degan gap yo'q edi. Mehmonlar, shogirdlar, qarindoshlar kelib-ketsa ham har birimizga alohida vaqt topardi. Nimaga qiziqamiz, nega kayfiyatimiz yo'q, nimadan qiynalaymiz, o'qishimiz qanday? Otam biz bilan bir butunligini anglatib turardi. Juda mehribon edi. O'z o'rnida qattiqqo'lligi ham bor edi, albatta. Jahli chiqqanda yoki kayfiyati bo'lmaganida oldida ayamdan boshqa hech kim qolmas, hammamiz xonamizga kirib, jim o'tirar edik.

“Endi qachon kelasizlar?”, deb so'rardi. “Ota, hozir keldim-ku uyga”, derdim kulib.

Filologiya fanlari doktori Begali Qosimovga kelin bo'lganman. Turmush o'rtog'im domlarning kenja o'g'li. Ko'zining oldida katta bo'lgan. “Bu ikkalasi o'zi yosh bola-yu, ikkita bolasi bor-a. Qachon qarasa, istirohat bog'larida aylanib yuradi, bolalari qolib, o'zlari o'ynab ketadi”, deb biz, ikki kenjaning ustidan hazillashardi. Ikkinchi o'g'lim Oybek o'sha paytlar kichkina nevara edi. “Oybek domla, ustoz”, deb alohida yaxshi ko'rardi.

Otam go'yo uzoq safarga ketgan-u, hali zamon kelib qoladigandek. Yotoqxonasi ikkinchi qavatda joylashgan. U yerdagi kiyimlari, o'zingiz ko'rishingiz mumkin, qanday turgan bo'lsa, shu holatda saqlangan. Onam qatorlarini ham o'zgartirmagan. Xuddi bir narsaning joyini almashirib qo'ysak, otam keyin qidirib qoladigandek tuyulaveradi. Tut shinnisi va asalni yaxshi ko'rardi, shuning uchun mana bu shinnilarga ham tegmaganmiz, salkam o'n yildan buyon turibdi.

Har bir gapdan, vaziyatdan otamning o'g'iti chiqib kelaveradi, she'rlaridan javob olamiz, o'zimizcha xulosa chiqaramiz. Otamsiz kunimiz yo'q hozir ham. Ongimizda, qalbimizda biz bilan doimo birga. Sog'inganda istalgan she'rlarini o'qiyman, ularda otamning tafti, hislari mujassam. Katta-katta she'rlarining yukini, zalvorini yurakdan o'tkazaman, “Mana bu joyida nima demoqchi bo'lgansiz?” deb nega vaqtida so'rab olmagan ekanman-a deb qo'yaman ba'zida”.

— Otamning ijod qilgan vaqti kam bo'lgan. Doim ijod bilan mashg'ul bo'lardi. Lekin boshqa ijodkorlar kabi bizga sen kirma, yo bo'lmasa, onamga, bolalarni ol, men ijod qilayman demas edi. Aksincha, biz, qizlar otamning kotibasi edik. Ba'zan aytib turib yozdirardi. Ammo she'rlarni qayta ishlash jarayonida yolg'iz qolishni ma'qul ko'rardi. Tahrir jarayonida biz yozib olgan she'rlar ba'zan butunlay o'zgarib ketardi, — deydi Abdulla Oripovning qizi Yulduz Oripova. — Otam juda ta'sirchan, nozikta' b kishi edi. Ularga biror muammoni gapirishga imyanardik. Shu bois, uydagi maishiy muammolarni ayamga aytardik. Agar kattaroq masala bo'lsa, oxiri otamga aytildirdi. Shundayam ayam orqali aytirganmiz. Otamning ko'nglini avaylaganmiz, uni bezovta qilavermaganmiz. Ammo har qanday masalada otamning oldiga borsak, ijobiy javob olishimiz aniq edi. Otam oxirgi ilinjimiz edi. Unga shaxsiy fikrimiz doimo qiziq va muhim bo'lgan.

Yetaklashib qator
va qator, yo'ldan o'tdi
yetmish besh bahor...

Shoirming AQSHda istiqomat qiluvchi qizi Mavluda Oripova o'z xotiralarida shoirming so'nggi kunlarini bunday eslaydi: “Otam uyimizda kelganida juda xursand bo'ldi. Turmushimni, tinch va osuda yashayotganimni ko'rib, ko'ngli xotirjam tordi. Hammamiz xursand edik. Ular kelishi bilan xonadonimiz fayzga to'ldi. Otamning ahvoli yaxshi, har kuni she'rlar yozadi, jodkalarim bilan o'ynaydi, shirin-shirin subhatlar quramiz. Amerikadagi o'zbeklar bilan yig'ilib, sayil uyushtirdik. Ota-onam birga qatnashdi, otam she'r o'qidi. Mehmonlar ham xursand bo'ldi... Otamning oxirgi kunlari xotirasi qalblimni hanuz tilkalaydi. Hammasi to'satdan bo'ldi. Profilaktika uchun shifokorlar tekshiruvdan o'tayotganimizda: “Ilgaridan eshitganim bor, har bir odamning yuragida jon qushi bo'ladi. Agar odam shu qushning ovozi ni eshitsa, xayrli emasdir. Mening ham jon qushim chiqirib yotibdi, qizim”, dedi. Otamning tomirini topish qiyin edi. Uning shu gaplarini eshitar ekanman, mahkam bag'rimga bosdim, boshlaridan silab choqqladim. Otamni hech kimga bergim kelmasdi. Umri o'xirida yozilgan she'rlarida ham o'z o'limini bashorat qilganday edi:

Yetaklashib qator va qator,
Yo'ldan o'tdi yetmish besh bahor.
U bahorlar meniki edi,
Bulam, bari seniki endi...

Bugun ushbu munavvar go'shalarni milliy o'zlikni asrab qoluvchi tirik ma'naviyat qo'ng'onlari sifatida e'zozlash, ularni kelajak avlodga hech bir o'zgarishsiz, bor salobati bilan yetkazish har birimizning mas'uliyatimizga aylaniishi lozim.

Uy-muzeyga tashrif buyurish o'tmish bilan yuzma-yuz mulog'ot qilish, millat fidoyilari qoldirgan merosdan ruhiy quvvat olish demak. Shu bois, bu kabi maskanlar har bir yurdoshimiz uchun tafakkur qilish, ajdodlar iztirobi va quvonchini his qilish uchun ayni muddao va bebaho imkoniyatdir.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huquqiy huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-346.
31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy